

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI  
O'ZBEK TILI KAFEDRASI**

**5111200 – o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lif yo'naliishi  
4- "V" kurs talabasi**

**SHUKURLAYEVA SURAYYO YAKUBBOYEVNA**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «SH.XOLMIRZAYEV ASARLARIDA INSON  
RUHIYATINI AKS ETTIRUVCHI LEKSEMALARING  
MA'NOVIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI»**

Talaba: S.Shukurlayeva

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. G.Qurbaniyozov

Kafedra mudiri: p.f.n., dots. Sh.Yuldasheva

*O'zbek tili va O'zbek adabiyoti kafedralari qo'shma yig'ilishining 2018- yil 30- maydagi 5- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

**NUKUS – 2018**

Shukurlayeva Surayyoning «Sh.Xolmirzayev asarlarida inson ruhiyatini aks ettiruvchi leksemalarning ma’noviy-uslubiy xususiyatlari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «\_\_\_\_» ball («\_\_\_\_%») qo‘yildi.

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018- yil

DAK kotibi:

O.Xaytboyev

## MUNDARIJA

	<b>Kirish.Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob.</b>	<b>Sh. Xolmirzayev asarlarida fe'l leksemalar semantikasi.....</b>	<b>8</b>
1.1.	Ruhiy holat ifodalovchi fe'llar semantikasi.....	8
1.2.	Harakat ma'nosini ifodalovchi fe'llar semantikasi .....	14
<b>II bob.</b>	<b>Sh. Xolmirzayevning til birliklaridan foydalanish mahorati</b>	<b>21</b>
2.1.	Ekspressivlikni ta'minlashda fonetik vositalarning o'rni .....	21
2.2.	Fe'l leksemalar nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vosita sifatida .....	25
<b>III bob.</b>	<b>O'rta maktabda leksemalarning uslubiy xususiyatlarini o'rgatish usullari .....</b>	<b>34</b>
3.1.	Leksemalarning uslubiy xususiyatlarini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	34
3.2.	Mavzuga doir dars ishlanma .....	47
	<b>Xulosa.....</b>	<b>54</b>
	<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>56</b>

## KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarblii.** Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yoshlarni ijodiy tafakkur sohibi qilib yetishtirishni ta’lim tizimi oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa qilib qo‘ydi. Zero, mustaqil va ijodiy fikrlashni o‘rgangan shaxs, til imkoniyatlarining bitmas-tuganmas xazinasidan foydalanish sinoatlarini mukammal egallagan yosh avlodgina buyuk kelajakni yaratishga, milliy va ijtimoiy taraqqiyot yo‘llarini belgilab berishga qodir bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida yoshlardagi ilmiy g‘oya va iqtidorni shakllantirish, an’anaviy qadriyatlarni e’zozlash, vatan taraqqiyoti, ravnaqi yo‘lida jon olib jon beradigan vatanparvar, ijodkor-u tadbirkor, komil-u fozil yosh avlodni tarbiyalash muammosi ona tili va adabiyotning bosh vazifasi ekanligini unutmasligimiz kerak.

Ta’lim mazmuni bo‘yicha berilgan va berilayotgan barcha ma’lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbiyligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto‘xtov ilgarilab boradi. Shuning uchun muhtaram Prezidentimiz Sh. M.Mirziyoyev “Hayotimizga katta kuch bo‘lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi” – degan edilar<sup>1</sup>.

Ta’lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili darsini o‘qitishdan asosiy maqsad: o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq va ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg‘unligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, “o‘quvchi-ta’lim-o‘qituvchi” munosabatlarini to‘g‘ri

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –B.25.

tashkil etish - ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

Sh. Xolmirzayev o‘zbek tili ifoda imkoniyatlarini juda chuqur bilgan, uning ifoda imkoniyatlaridan mohirona foydalana olgan talantli yozuvchi edi. Til birliklarining ma’noli qismlarini – semalarini, ularning birika olish imkoniyatlarini – valentligini juda chuqur bilar, uslubi betakror, o‘ziga xos edi. Yozuvchi asarlari juda ko‘p tadqiqotlar uchun manba bo‘ldi. Ushbu masala to‘g‘risida tadqiqotlarda, ta’lim bosqichlarida masalaning o‘rganilishi sohasida turli-tuman qarashlar, yondashuvlar yuzaga keldi. Ularni tahlil qilish va o‘rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning obyekti.** Sh.Xolmirzayev asarlarida inson ruhiy holatini ifodalovchi va harakat ma’nosini ifodalovchi fe’l leksemalar, shuningdek inson ruhiyatini ifodalovchi sifat leksemalarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganish orqali yozuvchining ifoda imkoniyatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning predmeti.** Umumta’lim maktablarida Ona tilini o‘qitish jarayonida yozuvchi asarlarining tili va uslubini o‘quvchilarga o‘rgatish. Leksemalarning ma’noviy va grammatik xususiyatlarini tadqiq qilish.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sh.Xolmirzayev tili va uslubi masalasi o‘zbek tilshunosligida filologiya fanlari doktorlari Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, R.Qo‘ng‘urov, B. Yo‘ldoshev, N.Mahmudovlar tomonidan monografik tahlil qilingan. Fe’l boshqa so‘z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni zamonda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. Fe’l sintaktik konstruktsiyalarda markaziy o‘rinni egallaydi, gap tuzilishini belgilaydi, uning qanday ma’noli so‘zlardan tarkib topganini anglatish imkoniga ham ega bo‘ladi. Fe’llarning ifoda-tasvir imkoniyatlari nihoyatda keng bo‘lganligi tufayli Sh. Xolmirzayev asarlarining xususiyatlari to‘la o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz ham shu yo‘nalishlardagi tadqiqotlardan biridir.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ushbu tadqiqotning maqsadi ruhiy holat va harakat ma’nosini ifodalovchi fe’l leksemalarning semantik qurilishi hamda mazmuniy

xususiyatlarining tadqiq darajasini o'rganish va ta'lim bosqichlari dasturlarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida masalaning qo'yilishini qiyosiy o'rganib chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari.** Tadqiqotning bosh vazifasi sifatida o'zbek tilshunosligida ruhiy holat va harakat ma'nosini ifodalovchi leksemalarning o'rganilishini tadqiq qilish masalasi belgilandi. Shunga ko'ra tadqiqot ishini yoritish davomida ruhiy holat va harakat ma'nosini ifodalovchi leksemalarni o'rganishda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchi ongiga singdirilishi lozim:

- ruhiy holat ifodalovchi fe'l leksemalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- harakat ma'nosini leksemalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Sh.Xolmirzayev asarlarida inson ruhiy holatini va harakat ma'nosini ifodalovchi leksemalarning uslubiy jihatdan o'rinni qo'llanilishini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Ishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning ma'naviyat, ma'rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar tog'risidagi fikr-mulohazalari, milliy til va madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiy etish yo'llari haqidagi qarashlari hamda til va uslub mavzusida qilingan tadqiqotlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylilik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ishda o'zbek tilshunosligida mavjud qarashlar asosida ruhiy holat ifodalovchi leksemalarning semantik jihatlari tadqiq qilindi. Bunda:

- o'zbek tilshunosligida til va uslub masalasiga doir ishlarga munosabat bildirildi;
- ruhiy holat ifodalovchi fe'l leksemalarning xususiyatlari aniqlandi;
- harakat ma'nosini ifodalovchi fe'l leksemalarning xususiyatlari aniqlandi;
- ruhiy holat va harakat ma'nosini ifodalovchi fe'l va sifat leksemalarning xususiyatlari qiyosiy tadqiq qilindi;

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Malakaviy ishda yoritilgan mavzuga oid fikrlarimizdan umumta’lim maktab o‘qituvchilari, so‘z turkumlari, shulardan “Fe’l so‘z turkumi”ni, ”Til va uslub” mavzularini o‘rgatishda foydalanishlari mumkin. Tadqiq davomida bayon etilgan xulosalardan Ona tilini o‘qitish sifatini oshirishda, fe’llar mavzusiga doir dars ishlasmalarini yaratishda, sinfdan va maktabdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida foydalansa bo‘ladi.

**Ishning sinalishi, natijalarining ommalashtirilishi.** Bitiruv malakaviy ishida bildirilgan fikrlardan pedagogik amaliyat davrida o‘quvchilarining ona tilidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, savodxonligini oshirishda foydalanildi.

**Ishning tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiylar xulosalar va foydalaniylgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

# I BOB. SH.XOLMIRZAYEV ASARLARIDA FE'L LEKSEMALAR

## SEMANTIKASI

### 1.1. Ruhiy holat ifodalovchi fe'llar semantikasi

Shaxsnинг rivojlanishi – jamiyat rivoji demakdir. Shunday ekan jamiyat oldidagi eng asosiy vazifalardan biri sog‘lom avlodni voyaga yetkazish. Bu muhim vazifani amalga oshirish birinchi navbatda o‘qituvchiga bog‘liq.

O‘quvchidagi nutq zahirasini boyitish, og‘zaki va yozma nutqni, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, fikrni aniq va to‘g‘ri ifodalash malakalarini shakllantirish til ta’limida eng muhim va zaruriy masala hisoblanadi. Bu maqsadga erishishning yagona yo‘li - fe’lning grammatik ma’nolarini o‘rgatish bilan bir qatorda ularni ma’noviy guruhlarga ajratish, o‘zaro qiyoslash, farqlash, ular ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuzish, mustaqil va mukammal matn yaratish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. O‘quvchiga ustozlar tomonidan fe’llarning cheksiz uslubiy imkoniyatlarini hisobga olib, uning ma’nodoshlari, uyadoshlari hamda zid ma’nolarini o‘rgatish, ularni alohida ro‘yxat qilish, sodda, qo‘shma, juft, takror fe’llar ishtirokida gaplar hosil qilish, dars jarayonida o‘quv texnika vositalari hamda muammoli ta’lim imkoniyatlaridan, intellektual o‘yintopshiriqlardan foydalanish o‘quvchi so‘z boyligini oshiradi.

Shunisi xarakterlik, so‘z valentligi har qancha yetakchi, birlamchi, asosiy bo‘lmasin, u nutqda – so‘zlar orasidagi o‘zaro munosabatda, nutq birliklarining sintaktik aloqasidagina “qudratli kuchga” – kommunikatsiyaning asosiga aylanadi. Shu tufayli so‘zlar orasidagi sintaktik aloqa so‘z valentligini yuzaga chiqarishi, reallashtirishi, “ko‘rinadigan” holatga o‘tkazishi bilan alohida muhim ahamiyatga egadir. Demak so‘z valentligida – valentlik munosabatiga kirishgan so‘zlarda ikki tomonlama aloqa, bog‘liqlik bo‘lishi tabiiy va ayni vaqtida zaruriy holdir. Binobarin valentlik bir tomonlama hodisa emas, balki ikki tomonlama – ham semantik, ham sintaktik hodisadir. Kommunikatsiya jarayoni lingvistik planda semantik-sintaktik jarayon, so‘zlar orasidagi semantik-sintaktik aloqa sifatida baholanadi.

Shunday qilib, so‘zlar orasidagi sintaktik aloqa asosida so‘zning valentlik imkoni yotadi. Sintaktik aloqa asosida so‘zning valentlik qobiliyatiga egaligini, valentlik umumiy xususiyatining nutqda, so‘zlar orasidagi turlicha bog‘lanishlarda – xususiylikda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadiki, bu aslida “umumiylilik va xususiylik, mohiyat va hodisa dialektikasining voqe bo‘lishidir”.

To‘g‘ri, tilshunoslikda so‘zning semantik valentligi tushunchasi bilan bir qatorda tashqi valentlik, ichki valentlik, formal valentlik, sintaktik valentlik, logik valentlik kabi valentliklar ham borki, bularning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu tip valentliklarning biri muayyan so‘zning semantik strukturasidan, yana biri so‘z va formantlarning o‘zaro birika olish imkoniyatidan, boshqasi fe’l predikatning formal shakllanishidan – uning muayyan so‘z formasida reallashishidan, yana boshqasi so‘z (fe’l) ma’nosida reallashuvchi aktantning logik xarakteri kabilardan kelib chiqishi bilan xarakterlanadi.

Semantik valentlikning mohiyati shundaki, bu tip valentlikda so‘zlar muayyan semantik belgilarga ega muayyan kontekstual partnyorlarni talab qiladi va boshqa semantik belgilarga ega kontekstual partnyorlarni tan olmaydi. Ular ma’nosiga, muayyan semantik belgilariga ko‘ra tanlab olingan partnyorlar gruppasi tomonidan ochiq pozitsiyalarning to‘ldirilishini boshqaradi. O‘ziga muvofiq kontekstual partnyorlarning tanlanishi va nomuvofiq kontekstual partnyorlarning inkor qilinishi har ikkala kontekstual partnyorlar semantik belgilarining qo‘sila olishi yoki qo‘sila olmasligi asosida amalga oshadi, bu o‘z navbatida obyektiv voqelik hodisalari bilan motivlanadi. Demak, leksema sememalarining o‘zaro birikuvi aslida sememani shakllantiruvchi, uning mantiqiy komponenti bo‘lgan semalarning o‘zaro munosabati, muvofiqligi, bir-biri bilan chiqishishi asosida yuzaga keladi. Bunday qarash hozirgi tilshunoslikda ommaviy tus olgani ma’lum. Ayni vaqtda leksema sememalarining birikuvi konkret semantik sintagmalarini hosil qiladi. Semantik sintagmalarining komponentlari esa mantiqiy ravishda sememalar bo‘lib reallashadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, fe'l faqat harakat, holatnigina emas, balki situatsiyani ham bir butun holda anglatadi, u shu harakat, holat – situatsiyaning barcha aktantlarini ham ifoda etish qobiliyatiga egadir.

O'zbek tilidagi holat fe'llari arxisemadan boshqa differential semalari bilan ham xarakterlanadi. Bu – tabiiy, mantiqiy. Chunki holat fe'llari muayyan differential semalariga ko'ra nutqda konkret denotativ ma'noga, umumiyligidan nisbiy ajralishga ega bo'ladi. Differential semalar holat fe'llarining avtonomligini ko'rsatuvchi semantik belgi sifatida xizmat qiladi. Ularda leksema sememasining o'ziga xos belgisi, emotSIONAL-ekspressiv ottenkasi, nutqiy xoslanishi aks etadi.

Fe'llar ma'no xususiyatlariga ko'ra o'zbek tilshunosligida bir necha semantik guruhga ajratiladi. Shulardan katta bir guruhini ruhiy holat ifodalovchi fe'llar tashkil qiladi. Ruhiy holat fe'llari – inson ruhiy faoliyatini, psixik holatini ifodalaydi. Ushbu fe'llar insonda yuz bergen yoqimli yoki yoqimsiz tuyg'ularni, tinchlik-farog'at, hayajonlanish va ma'yuslanish, dadillik va taraddudlanish, quvonish va g'azablanish, qo'rquv va shodlik kabi ijobiy va salbiy emotSIONAL holatlarni ifoda etishi bilan boshqa leksik-semantik gruppa holat fe'llaridan ajralib turadi.

Ruhiy holat fe'llari quyidagilar: *o'ng'aysizlanmoq, qo'rqamoq, ajablanmoq, zavqlanmoq, sevinmoq, suyunmoq, achinmoq, cho'chimoq, qiziqmoq, uyalmoq, afsuslanmoq, asabiylashmoq, quvonmoq, gerdaymoq*. (manmanlik qilmoq), *yumshamoq*, (jahdan tushmoq), *qizarmoq* (uyalmoq), *achchiqlanmoq, ranjimoq, bo'shashmoq* (hovuridan tushmoq), *mudramoq* (mudroq bosmoq), *xavotirlanmoq, zerikmoq, g'azablanmoq, taajjublanmoq, hayajonlanmoq, o'pkalamoq, ikkilanmoq, iymanmoq, sovimoq* (ko'ngli qolmoq), *o'kinmoq, dadillanmoq, tutashmoq* (qizishmoq), *jiddiylashmoq, g'ijinmoq, ijirg'anmoq, esankiramoq, sergaklanmoq, og'rinmoq, qayg'urmoq, ichmoq* (ko'ngli tortmoq), *talmovsiramoq, ma'yuslanmoq, ovunmoq, irganmoq, tashvishlanmoq, nafratlanmoq, o'ksimoq, dovdiramoq, garangsiramoq, gumonsiramoq, shodlanmoq, xavfsiramoq, shishinmoq, bezmoq, zorlanmoq, mag'rurlanmoq, gangimoq* (esankiramoq, sarosimaga tushmoq), *xomushlanmoq, kekkaymoq* (o'zini yuqori tutmoq),

*yupanmoq, shubhalanmoq, tortinmoq, do‘g‘aymoq, siqilmoq, tinchsizla(-n)moq, istig‘nolanmoq, bezovtalanmoq, toqatsizlanmoq, sabrsizlanmoq, xotirjamlanmoq, tinchimoq* (yengil tortmoq, tinchlanmoq), *shavqlanmoq, betoqatlanmoq, jirkanmoq, muloyimlashmoq, to‘ymoq* (toqati toq, bezorijon bo‘lmoq), *bosinqiramoq, ta’sirlanmoq, umidlanmoq, shiddatlanmoq, qizishmoq, qoniqmoq, zirillamoq, yomonlamoq, o‘rtamoq, g‘o‘daymoq, qonmoq* (ko‘ngli to‘lmoq), *hasratlanmoq, taraddudlanmoq, qiynalmoq, qanoatlanmoq, tutaqmoq, tortinmoq, hadiksiramoq, chidamoq, tinchlanmoq, alahsiramoq, esankiramoq, telbalanmoq, hayiqmoq, orziqmoq, faxrlanmoq.*

Fe’lning ana shu qobilyati uning semantik valentligi sifatida belgilanadi. Demak, semantik valentlikka ega fe’l harakat, holat, nutq, ko‘rish, eshitish aktlarini ham shu aktlarning zaruriy aktantlari orasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Tilshunos S.N. Ivanov ta’biricha, „Amalga oshishi mumkin bo‘lgan aloqalarning miqdoriga ko‘ra ... fe’llar turli valenlikka ega bo‘ladi. Qiyoslang: o‘qidim (kim, nimani, qayerda, qachon), suhbatlashdim (kim, kim bilan, nima haqda, qayerda, qachon)”.

Xullas, fe’l valentlik imkoniyatiga ega bo‘lib, bu imkoniyatning yuzaga chiqishi, tasdig‘i nutqda sodir bo‘ladi. Fe’l gapda valentlik tashuvchiligi bilan, boshqa so‘zlarni o‘ziga biriktira olish qobilyatiga ega eng asosiy konstruktiv birlik ekanligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek tilida holat fe’llarining semantik valentligini-obligator valentliklarini yoritishdan avval holat fe’llari, uning ichki leksik-semantik gruppalarini haqida fikr yuritish, ularni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki turkiy tilshunoslikda holat fe’llari semantik maydoni shu vaqtgacha konkret ajratilgan emas, holat fe’llari o‘z ichida mukammal tasnif qilinib, tilshunos R.Rasulov tomonidan alohida ilmiy tekshirish obyekti bo‘lgan<sup>2</sup>.

O‘zbek tilida holat fe’llari obyektiv asosiga ko‘ra tabiat va jamiyatdagi, o‘simgiliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog‘liq muayyan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Demak, holat fe’llari moddiy

<sup>2</sup> Rasulov R. Ozbek tilidagi holat fe’llarining obligator valentliklari. T.: ”Fan”, 1989.

asosiga (obyektiga) ko‘ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o‘ziga „joylashtirishi” bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe’l leksemalardan ajtalib turadi.

Holat fe’llari ma’nosida reallashuvchi holat muayyan logik subyekt doirasidagina sodir bo‘lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi. Holat fe’llari holat ifodalaydi, kimdir (nimadir) muayyan holatga bo‘ladi.

Misollar:

*Uning kayfiyati yana shu “qishki bahor” havosining qisqa umridek o‘zgardi: ruhi ko‘tarila boshladi (6).*

*U to‘liqib, Arslonov ozsozlarini e’tibor bilan eshitishini istab, yolvorgan ohangda davom qildi (11).*

*Qurbon allanechuk g‘amgin torta boshladi(21).*

Birinchi misoldagi “ruhi ko‘tarila boshladi” birikmasi insondagi ijobiy ruhiy holatni ifodalaydi. Ikkinci misoldagi “yolvorgan ohangda davom qildi” birikmasida ham “tobelik”, “o‘z harakatidan rozilik” semalari mavjud. Yozuvchi mazkur fe’lning semantik partnyorlari qilib tanlagan til birliklarining ma’no qirralaridan shunday ustalik bilan foydalana olganki, natijada salbiy semaga ega bo‘lgan semema ijobiy ma’no kasb etgan.

Uchinchi misolda shaxsning harakatini ifodalash uchun tanlagan til birliklariga e’tiborni qaratamiz: yozuvchi qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishni tasvirlash uchun foydalangan bu ibora mahorat bilan o‘rinli ishlatilgan. Yana bir misolga e`tibor bering: *Bu vaqtda Amazonboyning qizi Oyparcha o‘z ayvonlarida, archa ustuniga behol suyanib turardi: uni birov urib, ezib tashlagandek(24).* Sh. Xolmirzayev qahramonning ruhiy holatini kitobxonga to‘laroq tasvirlab berish uchun “urib”, “ezib tashlagandek” fe’llarini ketma-ket berish orqali harakatni tasvirlash bilan birga uning ruhiy holatini ham ko‘rsata olgan.

Hozirgi tilshunoslik fani tilning fikr almashuv quroligina bo‘lib qolmay, hislar ifodalash qobiliyatiga ega ekanligini ham tan oldi. Buni ayniqsa leksikada

yaqqol ko‘rish mumkin: lug‘at tarkibida ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining turli munosabatini anglatishga xizmat qiladigan, xoslangan so‘zlar bor.

Misollarni qiyoslang:

*Qurbon battar quvonib ketdi: so‘fining bu gapi tagida katta faxr bor edi* (27).

*Ha oshnam, bukchayib qolding, jo‘jaxo‘roz deganimga xafa bo‘ldingmi?* (228)

*Boy nimaga sha‘ma qilganini, darhaqiqat, ona-bola yaxshi bilishar edi, ma’yus bo‘lib qolibdi* (37).

Misollardagi *xafa bo‘lmoq, ma’yus jilmaymoq* so‘zlari insondagi salbiy ruhiy holatni ifodalashga xizmat qilgan.

*Qurbon shosha-pisha cho‘g‘ni kosov bilan kovlar, kul isib, cho‘g‘lar bozillab qizargani sari quvonar va o‘choq ichi qip-qizil bo‘lgandan keyin qizga qaraydigandek edi* (53).

*Oyparcha hayron bo‘ldi: ”Nimaga buncha xursand?”* (31).

*Biroq... hovli adog‘iga qarab turarkan, ich-ichidan shodlanib ketdi* (31).  
*Arslonov qo‘mondonga yalt etib qaradi, mamnun jilmaydi* (68).

Ijobiy ruhiy holatni bildiruvchi leksemalar semalariga e’tibor qiling. Birinchi misolda *quvonmoq*, ikkinchi misolda *xursand* leksemalaridagi uslubiy semalarni solishtiring. *Ich-ichidan* leksemasi *shodlanmoq* leksemasi bilan birikib, ruhiy holat darajasining ortiqligini ifodalagan. Keyingi misolda *jilmaymoq* leksemasi *mamnun* leksemasi bilan birikib, ruhiy holat darajasining birinchi misoldagiga qaraganda ham ortiqligini ifodalagan.

Uchinchi misoldagi *xursand* leksemasining ma’nosи me’yoridan ortiqligini bildirish uchun, *buncha* aniqlovchisi ishlatilgan.

Sh. Xolmirzayev asarlarida salbiy ruhiy holatni ifodalovchi leksemalardan ham qahramon ruhiy holatini ifodalashda muvaffaqiyatli foydalanilgan.

*O‘rtada gap qolmgandek. Shokir chiqib ketadi, chol xayol surib, ijirg‘anib yotadi* (9).

*Jabborbek bir muddat xomush tortib qoldi-da: - Hamon Sho‘roning ichida bo‘lsa, u bizning odam! –dedi* (119).

*Otam menga mung ‘ayib qarab qoldi. Keyin... men kutmagan gapni qildi:*

*-Sen buzilib bo‘libsan, o‘g‘lim(113).*

Birinchi misolda *ijirg‘anmoq* leksemasi tarkibida *kayfiyati me’yordan past, ruhiy holati salbiy, nafratlanmoq, yoqtirmaslik* semalari sezilib turadi. Ikkinchisini misoldagi *xomush o‘tirganini* leksemalarida *xafalik, biror voqeadan ko‘ngli to‘lmaslik* semalari bor. Salbiy uslubiy belgi birinchi misoldagiga qaraganda kuchliroq. Uchinchi misoldagi *mung‘ayib* so‘zida belgi darajasi oldingi ikki misoldagiga qaraganda ham kuchliroq.

## **1.2. Harakat ma’nosini ifodalovchi fe’llar semantikasi**

Badiiy asarni o‘qish undagi har bir so‘z, ibora va jumlani qiroat bilan, to‘g‘ri, ravon o‘qishgina emas, balki matnning umumiy ruhiga kirib, tushunib o‘qishni ham anglatadi, asarning janriy xususiyatlaridan tashqari, o‘ziga xos ichki tuzilishi va ruhiyatini hisobga olishni taqozo etadi. Bunga erishish uchun o‘quvchilarni matn ustida jiddiy ishlashga o‘rgatish zarur.<sup>1</sup>

Adabiyotda o‘z so‘zi va o‘z uslubiga ega bo‘lgan Sh. Xolmirzayev asarlarida qo‘llangan harakat bilriuvchi fe’llarga misollar quyidagilardir:

**Bormoq**-so‘zlovchining yoki kuzatuvchining turgan joyidan, yonidan, nazaridan nari ketmoq, naridagi joy, manzil tomon harakat qilmoq, jo‘namoq, yo‘l olmoq.<sup>1</sup>

*Tag‘in Xivaga bordim. Otamning ahvoli ancha chatoq edi: shishganmi-e, sarg‘aygandek ham edi (113).*

*Bu manglayi qora o‘g‘ling tag‘in bag‘ringga borayotir. Bu sayoq farzanding dunyoning ko‘p o‘yinlarini tushunmaydi: o‘yladi, o‘yladi. Kuchi shunga yetdi, xolos (117).*

*Shu bilan tobutni ko‘tar-ko‘tar qilib jo‘nadik. O, juda dahshatli bo‘ladi bu payt: tobutni (sizlardayam shundaymi?) shiddat bilan olib ketishadiki chopib*

<sup>1</sup> Matchon Safo. Badiiy asar matni ustida ishslash. Til va adabiyot ta’limi. 2002 yil, 2-son

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati

*zo'rg'a yetib olasan: bu olamdan tezroq chiqarishga shoshilishayotgandek tuyuladi! (114).*

Keyingi misoldagi *yugurib* ravishdoshi *bormoq* fe'li bilan birikib, harakatning bajarilish tezligi me'yoridan ortiqligini ifodalash uchun xizmat qilgan.

### **Kelmoq:**

*... Shunday qilib, to'p Boysunga yaqin kelib qoldi(114).*

*Farg'onalik, toshkentlik bolalar orasida mendan yoshi ulug'lari ko'p edi: birlari armiyani bitirib kelgan, birlari texnikumni...(117). Shu payt uydan – yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, haryoqqa qarab tushib kela boshladi(119).*

### **Ketmoq:**

*Ayol etagini apil-tapil tushirib, taroqni tashlab, kulbaga kirib ketdi (119).*

*Rasvo bo'lib, shalabbo bo'lib yotoqqa yetib keldim. Ertasi saharlab turish kerak, terimga chiqish kerak. Yomg'ir, qor paxtaning oldida kapeyka! (123).*

### **Turmoq:**

*Shoto'ra tiz cho'kkanicha qo'llarini fotihaga ochganday turib qoldi (291). Shunda botiq qoya ortidan kelgan bo'g'iq tovush musiqa muallimini ham o'rnidan turg'izdi (283).*

Ikkinchи misoldagi *turmoq* fe'li inson ruhiyatiga ta'siri natijasida musiqa muallimini ham o'rnidan turishga majbur qilganligini mohirona ishlatgan.

### **Anglamoq:**

*U o'zi anglamagan holda ko'zlarida boyagi qo'rquv, tag'in hayajon-hijolat va o'ta sergaklik bilan kampirning qoshiga keldi. Unga qattiq tikildi-da: - Qimirlamay o'tiring, eshitdingizmi?- dedi (156).*

Yozuvchi qahramondagi ruhiy holatni ifodalash uchun qo'rquv, hayajon-xijolat, sergaklik leksemalarini yonma-yon ishlatadi. Bu bilan undagi his tuyg'ularni o'quvchiga to'laroq yetkazishga harakat qiladi.

### **Chiqmoq:**

*Hojar ana shu "qo'rg'on" ayvonchasiga chiqarkan:*

*-Yaxshi bo'p ketadi? Nima yaxshi bo'p ketadi? – deb burildi (147).*

*Xotini yana ayvonga yetgan edi, tilini tiydi: kampir eshitadi. – Lekin baribir hidini sezdi, dedi ichida va ta’bi xira bo‘lib, battar jahli chiqa boshladi* (147).

Birinchi misolda chiqish harakatini ifodalasa, ikkinchi misolda ko‘makchi fe’l sifatida jahli chiqmoq iborasi tarkibida ishlatilgan.

### **Yurmoq:**

*Shular orasida birov aylanib yursa! Tag‘in u odam gangib-garangsib yursa* (119).

-*U rahmatli men baxtsizni tuqqanki, sizdi uyingizda cho‘rilik qip jurippa...* (149).

*Yurmoq* so‘zining dialektal varianti *jurmogqi* ishlatganki, bu ham qahramonning xarakterini ochishda, uning nutq uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatishda ma‘lum darajada ro‘l o‘ynagan.

### **Otashin bo‘lmoq.**

—*Sen o‘lmaysan, ming gapirsang ham o‘lmaysan. – G‘udirlagan ko‘yi boz otashin bo‘la boshladi O‘sar* (149).

Obrazning ruhiy holatini ifodalovchi *qizishmoq* fe’li o‘rnida *otashin bo‘lmoq* birikmasini ishlatganki, bunda ham ifoda aniqligi bilan birga Sh.Xolmirzaev uslubining o‘ziga xos qirralari ham namoyon bo‘lgan.

Fe’llar turlicha ma’nolardagi his-tuyg‘ularni ifodalayotgan gaplarda nome’yoriy holatdagi agens, obyekt, o‘rin valentligining realizatori bilan birikadi. Bu esa o‘z navbatida har bir tilning nutq jarayonida rivojlantiruvchi dinamik sistema ekanligini yana bir marta isbotlaydi. Shu tariqa inson tafakkurining cheksizligi va tilning metaforik hamda dinamikligiga asoslangan ma’nolar benihoyaligi va ochiqligi imkoniyati cheksiz ma’noviy valentliklar, shu jumladan emotiv valentliklar uchun ham asos bo‘ladi.

Quyidagi misolga e’tibor bering:

*O‘sar tezlikni oshirib va har qadamda signal berib, go‘yoki o‘zining qandaydir “Borsa qaytmas”ga borayotganidan o‘tkinchilarni ogoh etayotgan kabi ko‘zi ilg‘agan tanish-bilishlarga beixtiyor bosh irg‘ab, qishloqdan chiqa boshladi* (154).

Mazkur misoldagi “*Borsa qaytmas*” fe’llarini ko‘chma ma’noda ishlatib, nutqning ta’sichanligini ta’minlagan.

Fe’l negizlariga qo‘siluvchi –gila (-kila, -qila, -g‘ila), -ga (-qa, -ka, -g‘a), -a (-la, -ala) qo‘sishchalari negizdan anglashilgan harakat bir oz o‘zgarganligini ifodalaydi. Masalan, *yurmoq*, *chopmoq*, *tortmoq*, *ezmoq*, *tepmoq*, *surtmoq*, *chertmoq*, *opichmoq* kabi fe’llar harakatning me’yor darajasida bajarilganligini bildiradi.

Mazkur fe’l negizlariga -gila, -qila, -kila, -g‘ila qo‘sishchalalarini qo‘sish orqali *yugurgila*, *tortqila*, *chopqilla*, *ezg‘ila*, *tepkila*, *titkila*, *surtkila*, *chertkila* kabi harakatning davomiyligini, takroriyligini ifodalovchi fe’l shakllari hosil bo‘ladi.

*Bobomiz, nima gap deb chopqillab-chopqillab boradi.* (11-b.)

Tep-tepkila, tit-titkila so‘zlarida tez-tez va ko‘p marta bajarilgan harakat ma’nosi ifodalangan.

Har qanday harakat, holat va uning nozik etaplari, subyektning ruhiy holati, salbiy yoki ijobiy emotsiyasi, obyektga, obyektiv borliqqa, biror shaxsga bo‘lgan modal-ekspressiv munasabati va ularning nozik ma’no ottenkalari asosan fe’llar orqali talqin etiladi. Adabiyotda badiiy tasviri vositalarni, so‘zlarning turli bo‘yoqlarini berishda, ko‘pincha, mana shu fe’llardan foydalaniladi. Bu so‘z turkumining turli problematik masalalari ustida olib borilgan har qanday ilmiy izlanishlar, lingvistik tadqiqotlar ham muhim va qimmatlidir.

Lug‘atlardan olingan statistik ma’lumotlarga va ayrim ilmiy kuzatishlarga asoslanib, *chiqmoq*, *tushmoq*, *tashlamoq* fe’llarini o‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llanuvchi, keng semantik-stilistik imkoniyatlarga ega bo‘lgan aktiv fe’llar deyish mumkin. Bunday aktiv fe’llarning grammatik tuzilishi boshqa fe’llarnikiga o‘xshagan, ularni leksik-semantik aspektida tasnif qilinganda harakat bildiruvchi fe’llar guruhiga kiritish mumkin.

*Chiqmoq* fe’li maqol-matallarning tarkibiy qismi sifatida faol qo‘llanadi. U gapda -ga formalı jo‘nalish, -dan formalı chiqish (ayrim nisbat formalarini olganda), -ni formalı tushum kelishigini boshqarib keladi. Ko‘makchi fe’l o‘rnida kelganda, asosan, -(i) b formalı yetakchi fe’l bilan birikadi.

**-ga+chiqmoq** formali birikmaning leksik stilistik ma'nolari:

- a) "yurish", "jo'nash", "ko'tarilish", "o'rmalash". Masalan, *tomga chiqmoq, daraxtga chiqmoq, toqqa chiqmoq, narvonga chiqmoq, tepalikka chiqmoq, yuqoriga chiqmoq* va boshqalar;
- b) "yurish", "joy almashtirish", "bir joydan ikkinchi joyga o'tmoq" kabi harakat ma'no ottenkalariga ega. Masalan, *bir qadam oldinga chiqmoq, to'rga chiqmoq, ayvonga chiqmoq, ko'chaga chiqmoq, hovliga chiqmoq, boqqa chiqmoq* va boshqalar;
- d) "yurish", "otlanish", "yo'l olish", "yo'nalish", "bir maqsadni ko'zlab harakat qilish" ma'nolari anglashiladi: *yo'lga chiqmoq, safarga chiqmoq, sayohatga chiqmoq.*

Yuqorida keltirilgan misollarda harakat yo'naltirilgan obyekt harakatning boshlanish nuqtasidan ancha olisdaligi anglashilib turadi. Quyida keltirilgan misollarda esa harakat yo'naltirilgan obyekt harakatning boshlanish nuqtasidan uncha olis emasligi anglashiladi: *idoraga chiqmoq, dorixonaga chiqmoq, qo'shniga chiqmoq.* Masofa yaqinligi ma'nosining ifodalanishida *chiqmoq fe'lining* roli muhim:

- e) "biror maqsadni ko'zlab yo'l olish", "zarurat yuzasidan borish", "ma'lum vazifa ko'zlab yoki biror narsani qo'lga kiritish maqsadida biror yerga borish" kabi ma'nolar ifodalanadi: *nonga chiqmoq, mevaga chiqmoq, palatoga chiqmoq, tufliga chiqmoq, ma'lumotnomaga chiqmoq* kabilar.

Yuqoridagi misollarda gapda qo'llanishi mumkin bo'lgan maqsad bildiruvchi bo'laklar kontekst ma'nosiga yashiringan. Bu hodisani metanimiya qonuniyatiga qiyoslash mumkin. (ya'ni *non* (olish uchun do'kon)ga *chiqmoq*).

Fe'l leksemalar substansiv semalariga ko'ra, dastlab, harakat, holat, jarayon semali fe'l leksemalariga ajraladi. Ilmiy adabiyotlarda ularning substantsiyasi muayyan nutqiy sharoitda, so'zlovchi va tinglovchining o'zaro shartnomaviy

munosabati asosida konnotativ ma'noga ishora qilib, sof harakat semasidan tashqari qo'shimcha ma'nolar ifodalab kelishi mumkinligi ko'rsatiladi.<sup>1</sup>

Harakat semali fe'l leksemalarda konnotativ ma'no harakat tushunchasi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Masalan, **sayramoq** leksemasi **gapirmoq** leksemasining sinonimi bo'lib, **ko'p gapirmoq** semasiga ega. Shu jihatdan **sayramoq** leksemasi **vaqillamoq**, **valaqlamoq**, **laqillamoq**, **jaqqillamoq**, **qaqqillamoq**, **vaysamoq**, **to'ng'illamoq**, **g'o'ng'illamoq**, **ping'illamoq**, **g'ing'illamoq**, **shing'illamoq**, **hangillamoq** kabi leksemalar bilan sinonimik qatorda turadi. Bu sinonimik qatordagi fe'l leksemalar bir-biridan konnotativ ma'nosi orqali farqlanadi.

Sayramoq leksemasida bosh sema harakat tushunchasini ifodalaydi. Bosh sema munosabatdorlik jihatidan "qush" leksemasi bilan bog'lanishni talab qiladi. Natijada "qush" leksemasi anglatgan to'daga mansub leksemalar bilan bosh semasi orqali bog'lanib, to'g'ri ma'nodagi harakat tushunchasini anglatadi: *Qush sayraydi*.

Ko'rinib turibdiki, bunday munosabatdorlikda bosh sema saqlanib, konnotativ ma'no ochiq anglashilmaydi. Qachonki, muayyan nutqiy sharoitda "gapirmoq" semasi anglashilsa, konnotativ ma'no yuzaga chiqadi, ochiq anglashiladi. Unda "sayramoq" leksemasi "odam" leksemasi bilan o'zaro munosabatga kirishib, turlicha ma'nolarni ifodalab keladi. "Odam" leksemasi ham "qush" leksemasi singari to'dani anglatadi, unga bir qancha inson tushunchasini bildiruvchi so'zlar birlashadi. "Sayramoq" leksemasi odam to'dasiga oid (ota, ona, aka, uka, opa, tog'a, amma, xola, pochcha, amaki, jiyan, nabira, chevara, suvchi, ishchi, rassom, rais, tilchi, adabiyotchi, duradgor kabi) so'zlar bilan bog'langanda, "ko'p gapirmoq" semasini anglatadi. Unda bu leksema **vaysamoq**, **valdiramoq**, **vaqqillamoq**, **valaqlamoq**, **laqillamoq**, **jaqqillamoq**, **qaqqilamoq** kabi leksemalar bilan sinonim bo'la oladi. Natijada "ma'nosiz, odamning joniga tegadigan darajada ko'p gapirdi" kabi salbiy munosabatni ifodalaydi. Bu leksema so'kmoq semasini ham ifodalab **javradi**, **shang'idi**, **to'ng'illadi**, **ping'illadi**,

<sup>1</sup> Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. Toshkent, 1977 y

**g‘ing‘illadi** kabi leksemalarning ikkinchi bir sinonimik qatorini tashkil etadi. Bunday holatda ham salbiy munosabatni ifodalaydi. “Sayramoq” leksemasining sinonimik qatoridagi so‘zlar bir-biridan konnotativ ma’nosи bilan farqlanadi. Masalan, **kelin oyim sayray boshladi** (gazetadan) gapida “jahli chiqqani uchun so‘ka boshladi” degan ma’no anglashiladi. **Qaynonasi jag‘-jag‘iga tegmay sayraydi** (gazetadan) gapida “ma’nosiz, ko‘p gapirodi” degan ma’no ifodalanayapti. **Ko‘p vaysamay ishni do‘ndirib qo‘ying** (A.Muxtor) gapida ham “ko‘p gapirmoq” ma’nosи anglashilgan. Agar matn tarkibidagi **sayramoq, vaysamoq, valdiramoq, vaqqillamoq, valaqlamoq, laqqillamoq** leksemalarini paradigmatic munosabatga kirtsak, “ko‘p gapirmoq” semasi orqali umumlashadi. Barcha holatlarda ham salbiy munosabatni ifodalaydi.

## **II BOB. SH.XOLMIRZA YEVNING TIL BIRLIKHLARIDAN**

### **FOYDALANISH MAHORATI**

#### **2.1. Ekspressivlikni ta'minlashda fonetik vositalarning o'rni**

O'zbek tilshunosligida fonetik vositalarning uslubiy vazifasi, ulardagi nutqning ta'sirchanligini oshirish maqsadida foydalanish imkoniyati borligi haqida dastlab A.G'.G'ulomov fikr bildirgan<sup>3</sup>. Olim unli va undosh tovushlarning cho'zilishi va tovush almashinishi natijasida fonostistik xususiyatlar paydo bo'lishini ta'kidlaydi. E.Qilichev esa talaffuz stillari va intonatsiyaning stilistik imkoniyatlariga kengroq to'xtaladi. A.Abduaizov, A.Rustamov, Sh.Shoabdurahmonov, H.Sharafiddinovlar ham fonetik vositalarning uslubiy bo'yoqdorligi haqida qimmatli fikr bildirgan. G.Yaxshieva fonetik uslubiy vositalarni nutq shakllari va har bir nutq shakli vositalari xususiyatlariga ko'ra ikkiga ajratadi:

- a) og'zaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlari va imkoniyatlari, ya'ni tom ma'nodagi fonetik stilistika;
- b) og'zaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlarini yozma nutqda grafik (imloviy) vositalar bilan aks ettirish, ya'ni tom ma'nodagi grafik stilistika.

So'zda denotativ va konnotativ ma'no mavjud. Ya'ni aloqa jarayonida faqatgina xabar almashilmasdan, so'zlovchining his-hayajoni, tinglovchiga nisbatan subyektiv munosabati aks etadi. O'zbek tilshunoslarning yuqorida fikrlarini rad etmagan holda shuni aytish mumkinki, kommunikatsiya har bir gap, so'z va hatto tovushning tanlanishi ham bevosita inson ruhiyati bilan bog'liq. Buni hatto o'zimiz ham sezmaymiz. Bu g'ayriixtiyoriy hodisaga o'xshaydi, ammo chuqurroq tahlil qilinsa, bu jarayon uzlucksiz ong osti qatlamlarida miyaning bevosita buyruqlari bilan amalga oshayotganligini bilamiz. Bu holatni badiiy matnda kuzatgan ma'qul. Har bir so'zda tovush va ma'no uyg'un bo'lsa, bunday so'z yorqin, yashovchan, o'zining mustahkam o'rniga ega bo'ladi va bunday

so‘zlar so‘zlashuv, badiiy uslubda keng qo‘llaniladi. Chunki tovushlar so‘z ma’nosini yanada bo‘ttiradi, emotsional bo‘yoqdorligini oshiradi. Ko‘pchilik she’rda ritm, qofiya, dono fikr, tasviriy vositalarning bo‘lishi yetarli deb o‘yaydi. Bu to‘g‘ri emas.

E.Bagritsskiy: "She’rning har bir harfi organizmdagi hujayraga o‘xshaydi va u doimo harakatda. She’rda o‘lik hujayralar bo‘lmaydi", – desa, S.Marshak yana ham aniqroq qilib: "She’rda nafaqat har bir so‘zga, balki har bir tovush, har bir unli, har bir undoshga ma’no yuklatiladi", – deydi. A.P.Juravlyovning tovushlar ustida o‘tkazgan qiziqarli tadqiqotlari bilan tanishgan o‘quvchi yuqoridagi fikrlarga e’tiroz bildirmaydi. Haqiqatan ham, inson va tovush o‘rtasidagi munosabat tarixini kuzatsak, biz uzoq o‘tmishga ibtidoiy jamoa tuzumigacha borishimiz aniq. Aynan mana shu tovushlarni his qilish ularning rang-barangligini ko‘ra olish qobiliyati ijodkor ahlida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular o‘zlarini ham sezmagani holda, ong osti sezimlariga tayanib so‘zlar, tovushlar tanlaydilarki, bu ijodkorlarning o‘ziga xosliklari, uslublari deya baholanadi. Buning asosiy omillaridan biri tovushlar uyini yoki tovush va so‘z uyg‘unligining har bir ijodkorning ruhiy olami, tashqi olamga munosabatidan kelib chiqqan holda aks etishidadir. Ushbu holatni psixolingvistik tadqiqotning fonetik vositalar yordamida inson ruhiyatining aks etishi tarzida o‘rganish lozim.

Misollarga murojaat qilaylik:

*O‘sar mashinani tar-tarlatib va birdan silkitib haydab ketarkan, negadir cho‘zib-cho‘zib bubuplatdi* (154).

– *Tavba qiling, tavba qilavering... – O‘sar mashinani surib tor ko‘chadan chiqarkan chambarakka shap-shap urib: - Dod! Deb qo‘ydi. Urdim nashani, surdim pashani degan ekan bir Nurqul degan avliyo* (154).

*O‘sar esini taniganidan beri biladiki, shu tutlar bor: bundan o‘n-yigirma yillar burun ham ular qari, tomirlari yer bag‘irlab bukchayib o‘sgan, quchoqqa sig‘mas tanasida po‘stloqlari kam qolgan, doimo chakalak-kallaklangan shoxlari orasida mitti jiblajibonlar chuv-chuylab yurishar edi* (150).

*Keyin nosqovoqni tishlariga tiq-tiq urib, nos otdi. – Gapiy!* (159)

Birinchi misolda yozuvchi tovush ifodalovchi leksemalardan mohirona foydalanib, atrofda bo‘layotgan voqealarni, hayvonlarning harakatlarini ko‘rsatish orqali qahramonning his-tuyg‘ularini ham shunga monand ravishda ifodalashga erishadi. Misoldagi tovushlarning uyg‘unligiga e’tibor bering: *tar-tarlatib, cho‘zib-cho‘zib bubuplatdi*.

Ikkinchi misolda O‘sarning ruhiy holati tasvirlanar ekan, muallif ...*chambarakka shap-shap urib: – Dod! Deb qo‘ydi* jumlasini ishlatadi, uning gapini atrofdagilar tinglamaganligi bois *g‘ovur ichida bo‘g‘iq tovushi arang eshitilar edi* deb tasvirlaydi.

Uchinchi misoldagi daraxt tasviriga e’tibor bering. Qari daraxt ko‘rinishini tasvirlashda tanlagan til birliklari tut daraxtini o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantiradi. Hatto uning tanasiga in qurgan qushlar orqali ham daraxtning ko‘p yil yashaganligini *doimo chakalak-kallaklangan shoxlari orasida mitti jiblajibonlar chuv-chuylab yurishar edi* jumlalari orqali ifodalaydi.

Sh. Xolmirzayev o‘z asarlarida tovushlarni takrorlash orqali ham so‘zning cho‘ziqligini, tovush kuchini, talaffuz uslubini aniq bera olgan:

*-Ha-a! – chol hiqillab kulib yubordi. – Ko‘zdan pana tursin deb-a? (18).*

Leksemaning mazmun planida asosiy hodisa - leksik ma’no. Uslubiy baho shu leksik ma’noga suyanadi, leksik ma’noni qurshab turadi.

Asli uslubiy baho haqida leksemani yaxlitligicha olib emas, balki konkret bir leksik ma’noni nazarda tutib gapirish to‘g‘ri. Haqiqatda, uslubiy baho bir leksemaning leksik ma’nolariga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin. Shu sababli bir leksemaning leksik ma’nolari hatto turli nutq ko‘rinishlariga xoslangan bo‘lib ham chiqadi.

Sh.Xolmirzaev qahramon ruhiyatini chuqur tadqiq etish maqsadida ular hayotiga chuqur psixologik ishoralar beruvchi jonzotlar, qushlar, hayvonlar hayotini moslab, shartli simvolik obrazlar sifatida istifoda etadi. Mavsumiy lavhalar, jumladan yomg‘ir, qor yog‘ishi, kuchli jazirama issiq, mayin yoki kuchli shamol tasvirlari ham qahramon ruhiyatiga uyqash holda tasvirlanishi bilan ijtimoiy, badiiy-falsafiy g‘oyalarni ilgari surish uchun xizmat etadi. Adib tabiat va

inson munosabatini aks ettirishida E.Xeminguey, M.Sholoxov, R.Tagor, J.London kabi jahon hikoyanavislari ergashadi. Jumladan, “Omon ovchining o‘limi” hikoyasida shafqatsiz ovchi obrazini yaratadi. Ovchi tabiatning turli jonzotlari... burgut, kaklik, to‘ng‘iz yovvoyi kiyik, arxar, tog‘ echkisi kabilarga qiron keltiradi. Ularni ovlash taqiqlangan paytda ham ko‘zi qonga to‘lib, ularni o‘ldiraveradi. Hikoya echimida Omon ovchi qilmishiga yarasha jazolanadi. Xalq ta’biri bilan aytganda qarg‘ishga uchraydi. O‘zi qirgan jonzotlarga yemish bo‘ladi. Shu tariqa hikoyada ovchi va hayvonot olami, tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning buzilishi natijasida katta fojiaga yo‘liqqan insonning achinarli taqdiri jonli lavhalarada ochib berilgan<sup>3</sup>.

Quyidagi misollarda odamga xos bo‘lgan tovush ko‘chma ma’noda hayvonga xos bo‘lgan so‘zga ko‘chirilgan.

*O‘sar og‘zini kappa-kappa ochib, nafas olgancha, qoq tarafga ko‘z otdiyu, ko‘lning u sohilida uyulib yotgan toklar, bodomcha va yantoqlarga tikilib qolib, chuqur xo‘rsindi (160).*

Misolda keltirilgan *og‘zini kappa-kappa* ochmoq birikmasi nafas olishda qiynalmoq ma’nosi bilan odatda baliqlarga nisbatan ishlatiladi. Yozuvchi O‘sarning ruhiy holatini ifodalashda baliqqa xos bo‘lgan belgini insonga nisbatan qo‘llash orqali tasvirning ta`sirchanligiga erishgan.

*Chillak, ya’ni onasop bilan bolasopni olib yo‘ng‘ichqapoyaga yo‘rtaman (192).*

Bu misolda esa yo‘rtmoq fe`lining otga yoki eshakka nisbatan ishlatilishini bilamiz. Shu belgining insonga nisbatan ishlatilishi orqali yozuvchi uslubining o‘ziga xosligi anglashiladi.

*Qizaloqlar ham tomoshadan quruq qoladiganday yetib kelishgan. Ular ikkita toshda cho‘milib chiqqan kaklik jo‘jalaridek g‘uj bo‘lib, go‘yo o‘zlarini oftobga toblab, patlarini quritishar edi.*

Insonga xos belgining parrandaga xos belgiga o‘xshatilishi orqali tasvirning ifodaliligi va ta`sirchanligini oshirishga erishgan.

<sup>3</sup> Bo`ronova B. Shukur Xolmirzaev hikoyalarida peyzaj./ O`zbek tili va adabiyoti. 2013. №2. –B.63.

Muallif ba’zi o‘rinlarda predmetlarga xos tovushlarni insonga nisbatan ham ishlatadi. Bunda jarayonni bo‘rttirib ko‘rsatish, salbiy qahramon chiqarayotgan tovushning boshqalarga ta’sirini mohir rassom kabi tasvirlay olgan:

*-Meni otimni nima qilasan? – U birdan sharaqlab kului. – Mayli oqtoshni olib chiqsang otimni aytaman* (210).

Yozuvchi ba’zan insonning ruhiy holatini ifodalash uchun o‘ziga xos usullardan, yangicha iboralardan foydalanadi.

*–Sho‘ro opa! Sho‘ro... deyishib qoldi bolalar. Qizlar ham shivir-shivir qilishdi-da, otliq so‘qmoqqa tushib va chang-to‘zon ko‘tarib enar ekan, hamma... Jo‘radan bo‘lak hamma zim-g‘oyib bo‘lishdi: qochishdi!* (221).

## **2.2. Fe’l leksemalar nutq ta’sirchanligini ta’minlovchi vosita sifatida**

Tilda nominativ ma’nosida tabiatan baholash elementi mavjud bo‘lgan so‘zlar borligi, ular biror narsa-hodisani atabgina qolmay, ayni paytda so‘zlovchining ifodalanyotgan tushunchaga o‘z bahosini, subyektiv emotсional-ekspressiv munosabatini ham ifodalashi, bunday so‘zlar emotсional-ekspressiv leksik qatlamni tashkil etishi haqida avval yozilgan edi.

Tilda emotсional-ekspressiv munosabat ifodalashning muhim vositalaridan yana biri ma’lum bir semantik guruhlarga mansub bo‘lgan so‘zлarni metaforik qo‘llashdir.

Ma’lumki, ma’noning o‘xshashlik printsipli asosida ko‘chishi metaforaning muhim belgisini tashkil etadi. Biroq predmetlar yoki hodisalar orasidagi tashqi o‘xshashlik asosida ko‘chirilgan ma’nolar (*taxtaning ko‘zi, derazaning ko‘zi, buloqning ko‘zi, stolning oyog‘i, tog‘ning beli, dutorning bo‘yni* va h. k.) bilan predmet (keng ma’noda) va uning harakati nomlarining insonga nisbatan, uning tabiatini va harakati belgilarini xarakterlashga mo‘ljallab ishlatilishi (*eshak, it, to‘ng‘iz, qo‘chqor, qo‘zichoq, bo‘taloq, ilon, chayon, lochin, bulbul, akillamoq, vaqillamoq, sayramoq* kabi so‘zlarning metaforik qo‘llanishi) natijasida

hosil bo‘luvchi ma’nolar orasida katta farq bor. Birinchi holda so‘zning metaforik qo‘llanishi borliq hodisalarining ma’lum bir tashqi belgi, xususiyatlarini obrazli anglatish taqozosi bilan sodir bo‘lgan. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo‘llashga xosdir.

Ikkinci holda esa metaforik qo‘llangan so‘z nutq subekti (so‘zlovchi)ning nutq obekti (bunda shaxs va uning harakati)ga nisbatan yorqin subektiv emotsiyonal-ekspressiv munosabatini ifodalaydi.

Tilda odamning turli xil belgi, xususiyatlarini anglatuvchi qator so‘zlar amal qiladi. Xususan, uning axloqiy, intellektual, sotsial belgilarini, shaxsiy xususiyatlarini anglatuvchi *iflos*, *yaramas*, *dono*, *mard*, *jasur*, *botir*, *saxiy* va shu kabi so‘zlar yuqorida aytilgan tematik gruppaga birlashadigan so‘zlardir. Bu so‘zlarning leksik ma’nolarida nutq predmeti (adam)ni ijobiy yoki salbiy emotsiyonal baholash elementlari mavjud.

Biroq til arsenalidagi bu kabi so‘zlar nutq subyekti (so‘zlovchi) nazarida uning emotsiyonal-ekspressiv munosabatini nutq predmetiga nisbatan o‘z istagi darajasida ifodalashga ojizlik qilib qoladi. Mana shu nuqsonni bartaraf etish maqsadida u ongli ravishda hayvon, gazanda, qush va shu kabilarni, shuningdek ularning xattiharakatlarini anglatuvchi so‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llashga o‘tadi.

Bu xilda ishlatilgan so‘zlarning qay tarzda emotsiyonal ma’no kasb etishini komponent tahlil usuliga murojaat qilinsa, aniqroq tasavvur qilish mumkin: *Ichib olgan bu eshak. Bo‘lmasa, birovni urib, g‘izg‘izon bo‘p ketadimi,...* (O‘. Hoshimov). Bu misoldagi *eshak* so‘zi nominativ (bosh) ma’noda «uy hayvonining bir turi», «ahmoq», «yaramas» semalariga ega, metaforik ma’noda esa «ahmoq», «yaramas», «adam» semalaridan tashkil topgan. Nominativ va metaforik ma’no strukturasini kuzatish bu ikki nominativ ma’no uchun umumiy bo‘lgan semalar «ahmoq», «yaramas» semalari ekanligini ko‘rsatadi<sup>4</sup>. Xuddi mana shu umumiy semalar *eshak* so‘zining metaforik ma’nosini hosil bo‘lishida asosiy rolni o‘ynagan.

Demak, bu tipdagи ma’no ko‘chishida ham metaforaga xos o‘xshashlik belgisi muhim omillardan hisoblanadi. Biroq bu o‘xshashlik tashqi belgilar (stolning oyog‘i, tog‘ning beli va shu kabilar singari) o‘xshashligi emas, balki intellektual,

xarakterlovchi belgilar o‘xhashligidir va ma’no ko‘chish ham mana shu o‘xhashlik asosida sodir bo‘lgan.

Yuqoridagi misolda so‘zlovchi *eshak* so‘zi o‘rniga «yaramas», «ablah» so‘zlarini qo‘llash bilan ham nutq predmeti bo‘lmish «odam»ga nisbatan salbiy emotсional munosabat ifodalashi mumkin edi. Biroq bunda «uy hayvonining bir turi» semasi bilan «odam» semasi (farqlovchi semalar) orasida paydo bo‘ladigan semantik kontrast hosil bo‘lmaydi. Demak, metaforik qo‘llash natijasida sodir bo‘ladigan stilistik-ekspressiv, emotсional effekt ham ifodalanmay qolgan bo‘lardi. Semantik kontrastning metaforik ma’no strukturasida emotсional baho elementi vujudga keltirishga sabab shuki, umumiy semalar farqlovchi semalar fonida ijtimoiy ongda turlicha qiymat bilan baholanadi. Masalan, *eshak* (uy hayvonining bir turi) va *odam* semalari (farqlovchi- semalar) fonida eshakka xos bo‘lgan befaхmlik va boshqa salbiy belgilar odamga xos shunday belgilardan o‘ta darajada ortiq deb baholanishi metaforik ma’noda juda yorqin, ortiq darajadagi salbiy emotсional ma’no hosil qilinishiga asos bo‘ladi. Ko‘rinadiki, bu tipdagi ma’no ko‘chishida o‘zaro bog‘liq ikki holat amal qiladi: 1. Umumiy semalar anglatadigan belgilar o‘xhashligi; 2. Farqlovchi semalar anglatadigan ma’nolar kontrasti.

Misollarga e’tibor bering:

*Mabodo ovdan qo‘li quruq qaytsa – bunday voqeа juda kamdan-kam bo‘lardi – u bamisolи otasi o‘lgandek aza tutar, qovog‘i ochilmas, shunda xotini ham ko‘ziga yomon ko‘rinib, bechora biron-bir yetishmovchilikdan zorlansa, u : “Jonga tegding-ku sen ham!” deya miltiqni qo‘lga olardi (19).*

*“Enam ham otamdan chiqib ketgan edi bir-ikki marta. Keyin qaytib kelib edi. Bular ham keladi hali...” deb o‘yladi u va g‘ashlanib esladi: o‘sanda u har gal otasi yonida qolardi (23).*

Umumiy semalar, yuqorida aytiganidek, metaforik ma’no hosil qilishning lingvistik asosini tashkil etsa, farqlovchi semalar salbiy (yuqoridagi kabi) yo ijobjiy emotсional munosabat ifodalanishining asosini tashkil etadi.

Ijobiy emotсional-ekspressiv ma’no hosil bo‘lish mexanizmi ham formal jihatdan salbiy emotсional-ekspressiv ma’no hosil bo‘lish mexanizmiga o‘xshaydi.

Masalan: «*Tirishganning to‘qmog‘i toshga chega qoqar*», — der. *Yashnar dalayu bog‘i, Ish boshida keksa sher* (Mirtemir) misolidagi *sher* so‘zi metaforik ma’noda *kuchli, botir, odam* semalaridan tashkil topgan. Umumiy semalar (*kuchli, qo‘rqmas*) asosida hosil bo‘lgan metaforik ma’no farqlovchi semalar asosida hosil bo‘luvchi semantik kontrast fonida yorqin ijobiy emotsiyal ma’no kasb etadi. Yirtqich hayvonga xos bo‘lgan kuchlilik, botirlik belgisi insonga xos shunday belgilardan beqiyos darajada yuqori turadi. Insonga xos bu belgilarning ijtimoiy ongda yuksak baholanishi hosil bo‘lgan metaforik ma’no strukturasida yorqin ijobiy emotsiyal baho elementi paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Sh.Xolmirzaev badiiy nasri tilida kuzatiladigan tasviriy vositalardan biri metafora hisoblanadi. Metaforik munosabat ma’lum sharoitda, ma’lum voqeahodisani tasvir etishda ikki predmet yoki hodisa o‘rtasida yuzaga keladi. Bunda buyum va hodisalar o‘rtasidagi umumiy ko‘rinishlar, xislatlar o‘xshashlik asosida biridan ikkinchisiga ko‘chiriladi. Masalan: “*Ey kalamush. Chiqmaysanmi berman?*” (Qil ko‘prik, 27). “*Ko‘p badjahl, badkor yigitlar ekan. Ayniqla, tulki telpak kiygani ajdaho ekan*” (107).

Keltirilgan misollarda “kalamush” va “ajdaho” so‘zleri metaforik holatni yuzaga keltirish uchun ishlatilgan bo‘lib, bu yerda kalamush va ajdahoga xos salbiy jihatlar insonga ko‘chirilgan. Natijada bunday salbiy xislatlarga bo‘lgan muallif munosabati o‘z badiiy ifodasini topgan.

Turli buyumlar, voqeahodisalar, jumladan qush nomlarini anglatuvchi ko‘pgina leksemalar ham metaforik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday holatda ma’noda ekspressiv-emotsionallik yanada kuchayadi hamda badiiy ta’sirchanlik oshib boradi: “*Nima qillardik, - deb kuldi Eshqobilov. – U qushcha yuragidan uribdi jiyanimizni, xotin. Bo‘pti. Ishqilib, jiyan, sen tinch bo‘lsang, bizga davlat shu*” (Bodom qishda gulladi). Bu matnda “*qushcha*” so‘zi “*jikkak qiz*” ma`nosida ishlatilgan bo‘lib, yozuvchining o‘ziga xos tarzda metafora yaratganligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, metafora va o‘xshashlik asosida ko‘chim hosil qilinadi. Unda narsa yoki hodisalar orasidagi tashqi o‘xshashlik asosidagi ko‘chirilgan ma’nolar

(odamning tumshug‘i, tog‘ning tumshug‘i) bilan predmet va uning harakati nomlari insonga nisbatan, uning tabiatini belgilarini xarakterlashga mo‘ljallab ishlatiladi (eshak, ho‘kiz, qo‘zichoq, bulbul). Bu kabi so‘zlarning metaforik qo‘llanilishida katta farq bor. “*Yana Norxo‘roz yo‘l boshlovchi bo‘lib, Osmono‘parning tumshug‘idan o‘tkazib qo‘ygan edi*” (352). “*Piyoda qaytamiz, charchasangiz, mana bu eshakning ustiga minasiz...*” (28). Keltirilgan misollarda tumshuq va eshak so‘zлari metafrik holatni yuzaga keltirgan bo‘lib, ular o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatda bir-biridan farq qiluvchi tomonlar mavjud. Birinchi holatda so‘zning metaforik qo‘llanilishi borliq hodisasining ma`lum bir ko‘rinishini tashqi o‘xhashlik asosida, ya’ni insonning tumshug‘i asosida ifodalagan. Tog‘ning bo‘rtib chiqqan qismiga nisbatan tumshuq so‘zi qo‘llangan. Ikkinci o‘rinda metaforik qo‘llangan so‘z nutq jarayonida “nutq obektiga” bo‘lgan munosabatni “yorqin tarzda ifodalash uchun”, ya`ni odamni eshakka qiyos qilish orqali hosil qilingan ko‘chimni ifodalagan. Darhaqiqat, metaforalar ham boshqa ko‘chim turlari kabi badiiy tilning go‘zal, nafis bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi tasviriy vosita. Undan har bir ijodkorning o‘ziga xos tarzda foydalanishi badiiy asarning ko‘lamdorligi va jozibadorligini ta`minlaydi. Sh.Xolmirzaev asarlari tilida ham metaforalardan unumli va mahorat bilan foydalanilganligini ko‘ramizki, bu ijodkorning o‘ziga xos individual nutq uslubiga ega ekanligidan dalolat beradi<sup>4</sup>.

Uslubiy baho kuchaya borgan sari bunday leksemaning boshqa leksemalar bilan bog‘lanishi (kontekst) xususiylasha boradi, toraya boradi. Yuqoridagi misollardan *aft*, *bashara* leksemalari asosan ayollar nutqida ishlatiladi, shunda ham ko‘pincha *qurimoq*, *olmoq*, *ko‘tarmoq* kabi bir necha fe’l bilangina bog‘lanib keladi: *afting qursin*, *basharang qursin*, *aftidan olsin*, *basharasidan olsin*, *aftidan ko‘tarsin* kabi. Xuddi shunday bog‘lanishlarda *yuz*, *bet* leksemalari deyarli ishatilmaydi. Aksincha, oddiy, betaraf tasvirda asosan *yuz*, *bet* leksemalari

---

<sup>4</sup> Normurodov R. Sh.Xolmirzaevning metaforadan foydalanish mahorati./O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. №2. –B. 68-69.

ishlatilib (*Yuzini yuvib kirib ketdi kabi*), *aft, bashara* leksemalari bunday hollarda deyarli ishlatilmaydi.

Kontekstual ifodalanishning bir turi deb uslubiy bahoning situativ ifodalanishini ko'rsatish mumkin. Bunday ifodalanishda har safar konkret nutq vaziyati nazarda tutiladi. Masalan, *olim* leksemasi shunday hislati bor kishiga qarata ishlatilsa, unda uslubiy baho betaraf bo'ladi. Agar bu leksema taqlidchiga, sohta intiluvchiga qarata mazax tariqasida aytilsa, bu leksema salbiy uslubiy bahoga ega bo'ladi: *Olimimiz mulohazalarini bayon qilmoqchilar-ku*.

Uslubiy jihatdan yondashib odatda betaraf baho va betaraf bo'limgan baho haqida gapiriladi. Baho betaraf bo'lsa, *manfiy baholi leksema* (leksik ma'no) deb, baho betaraf bo'lmasa, *musbat baholi leksema* (leksik ma'no) deb atash mumkin. Yuqoridagi misollarda *qush* — manfiy uslubiy baholi leksema, *qushcha* — musbat uslubiy baholi leksema.

Musbat uslubiy baho ikki xil: ijobiy yoki salbiy bo'ladi. Morfologik ifodalanishda uslubiy baho ijobiy bo'ladi (misollari yuqorida). Leksik va kontekstual ifodalanishda esa uslubiy baho ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Masalan, yuqoridagi misollardan *bet, aft, bashara* leksemalari — salbiy uslubiy baholi. Shularning sinonimi bo'lgan *chehra* leksemasi esa ijobiy uslubiy baholi.

Leksik ma'noni qoplab turuvchi uslubiy (emotsional-ekspressiv) baho ham leksemaning mazmun planiga mansub semantik qism deb qaraladi va *uslubiy sema* deb yuritiladi. Masalan, *aka, og'a* leksemalarining leksik ma'nosida ayni bir ideografik semalar mavjud (*kishi, erkak, bir ota-onaning farzandi, yoshi katta*), ammo bu leksemalarning mazmun plani uslubiy sema jihatidan farqli: *aka* leksemasiga «betaraf» uslubiy semasi mansub bo'lsa, *og'a* leksemasiga «ijobiy» (ko'tarinki) uslubiy semasi mansub.

Leksemaning mazmun planida, ideografik va uslubiy semalardan tashqari, yana bir sema qatnashadi. Har bir leksema ma'lum bir turkumga mansub bo'ladi va bu mansublikni leksemadan anglashiladigan leksik ma'no belgilab turadi. Leksik ma'nodan kelib chiqib belgilanadigan bunday semantik qism *turkumlik semasi*

deyiladi (kategorial sema deb ham yuritiladi). Masalan, *aka*, *og'a* leksemalari ot turkumiga mansub, chunki bular «predmet» ma’nosini anglatadi; *yaxshi*, *baland* leksemalari sifat turkumiga mansub, chunki bular «predmetning belgisi» ma’nosini anglatadi va boshqalar. Leksik ma’no asosida ajratiladigan «predmet», «predmet belgisi» kabi semantik qismlar turkumlik semasi bo‘lib, bunday sema ham, ideografik sema kabi, leksemaning semantik mazmunida qatnashadi.

Subektiv baho shakllari ifodalagan konnotativ-ma’nolar o‘zi birikib kelgan negizlar anglatgan leksik ma’noga uyg‘un bo‘lishi kerak. Aks holda, uslubiy nuqson vujudga keladi. Jumladan, *kichik* so‘zi semantikasida belgi miqdori kamligi anglashiladi. Shuning uchun ham unga kichraytish ma’noli -cha affiksi qo‘silmaydi (*kichikcha* deyilmaydi), Balki erkalash ma’noli -kina affiksi qo’shiladi (*kichkina*). *Katta* so‘ziga ham kichraytish affiksi -cha qo‘silmaydi (*kattacha* deyilmaydi). Chunki bu so‘zdagi belgi-miqdor darajasi ortiqligi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Bu hodisa qolgan barcha subyektiv baho shakllariga ham taalluqlidir.

Til bir xil elementning takrorini yoqtirmasada, so‘zlovchi yoki yozuvchi ma’lum uslubiy maqsad uchun so‘z yoki so‘z shakllarini qavat-qavat ishlataveradi. Qavatlanish leksik (*ulug‘ ayyom kunlari*; *tuz namak bo‘ldik*; *bosh-oyoq sarpo qildi*), morfologik (*ko‘rpachacha*, *qizaloqcha*, *bo‘taloqcha*) ko‘rinishlariga ega. Subyektiv baho shakllarini qavatlantirib qo’llash orqali nutq ta’sirchanligi oshiriladi, tasvirlanayotgan voqeа-hodisaga salbiy yoki ijobiy munosabat ta’kidlanadi. Subyektiv baho shakllaridagi pleonazm shu shakllarga xos kichraytish va erkalash ma’nolarining bir-biri bilan uzviy bog‘langanligidan kelib chiqadi. Bunday takrorlangan affiksning birinchi qismi ko‘pincha kichraytish ma’nosini bildirsa, ikkinchi qismi erkalash ottenkasiga ega bo‘ladi. Subyektiv baho shakllariga xos bo‘lgan yuqorida qayd etilgan konnotativ ma’nolar badiiy tasvirda nutqning ifodali bo‘lishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham yozuvchilarimiz o‘z asarlarida bunday qo‘srimchali so‘zlardan unumli foydalanadilar.

*O‘z-o‘zidan ma’lum: bu kiyiklar ko‘chkidan vahimaga tushib qochgan, orqasidan bo‘ri-mo‘rining quvgan bo‘lishi ham ehtimol* (28).

*...Kun degani shundayki, boshingga og‘ir savdo tushganda ham, o‘ynab-o‘ynoqlab yurganingda ham – o‘taveradi (31).*

*Undan keyin bo‘lsa menga shunday intiq-intizorlik bilan boqdiki, kelganidan buyon menga “ishqi tushib” dog‘imda kuyib yurganday (37).*

*E, tutunim chiqib ketgan. Ayol o‘qituvchi edi, erining piyonistaligini ham yuziga solganman (40).*

Holatning realligi, obyektivligi, uning muayyan shaxs yoki predmetda „to‘planishi”, unda „moddiylashishi” bilan bog‘liq ekan, demak, logik subyektning mavjudligi faqat uning absolyut harakati bilan emas, balki uning „absolyut” holati bilan ham o‘lchanadi. Aniqrog‘i, holat ham materianing yashash formasidir. Ammo holat nisbiylici bilan, harakat esa absolyutligi bilan ajralib turadi. Fe’l sememasidagi logik subyekt holati qanchalik davom etmasin, qanchalik real, turlich, „perspektivali” bo‘lmisin, u nisbiydir, uning nisbiylici absolyutdir. Chunki har qanday holat asosida harakat mavjuddir. Ammo bu harakat ko‘zga real tashlanmasligi, yashirinligi bilan xarakterlanadi. Demak, holat fe’llarida ifodalangan holat – yuz bergen holat akti, holat o‘zgarishi logik subyetkning ichki, passiv harakatidan sodir bo‘ladi, harakat natijasi sanaladi. Tilshunos Sh. Balli ta’kidlaganidek, „holat biz tomondan bevosita harakat ketidan ergashuvchi sifatida idrok qilinadi”. Aytilganlardan kelib chiqib, holat fe’lida reallahgan holat harakatga nisbatan passiv akt bo‘lsada, uni ham jarayon sifatida tushunish logic-filosofik to‘g‘ri bo‘ladi. Shunga ko‘ra manbalarda „fe’l mustaqil so‘z turkumi bo‘lib, predmetning harakat va holatini jarayon sifatida ifodalovchi so‘zlarni birlashtiradi”, deyiladi.

Obyektiv borliqdagi narsa-predmetlarga, shaxsga, hayvonga xos turlich holatlarni ifodalovchi holat fe’llari nutqda aktiv ishlatalishi va murakkab semantik strukturasi bilan ajralib turadi. Holat fe’llari sememasining arxisemasi “holat” bo‘lib, u holat fe’llarini bir makrosistemaga biriktiradi. Chunki arxisema xarakteridagi “holat” semasi asosida holat fe’llarinining semantik maydoni yuzaga keladi”. Demak, arxisema leksema sememasining mohiyatini ifodalaydi. Ayni vaqtda u shu semantik maydonga xos xususiyatlarni ham o‘zida aks ettiradi.

*O‘zi, sirasini aytsam, qiz xalqi, xotin xalqi sal mag‘rurroq yigitlarni ma’qul ko‘rishar ekan* (41).

*Chunki sal vaqt o‘tmay, hammasidan o‘zim past va nodon ekanimga iqror bo‘lganman* (40).

*-Do‘stim, siz oshiqu beqarorsiz! Shu to‘g‘rida maslahat so‘ramoqchimisiz? – dedim. U menga hayrat bilan qarab qoldi* (41).

*Ha, yig‘lab boshini egib qoldi. Xuddi onasidan nohaq kaltak yeganday yelkalari silkinib-silkinib ketadi*(41).

O‘zbek tilidagi holat fe’llari arxisema va differensial semadan boshqa semaga ham egadir. Bu sema „holat” arxisemali va muayyan differensial semali holat fe’llarining ichki semantik gruppalari uchun umumiyydir. Bu tip semalari arxisema bilan differensial semalar o‘rtasida turadi, o‘ziga xos informatsiya tashiydi. Bunday semalar manbalarda integral sema sifatida qayd etiladi. Integral semalar ham nisbiy mustaqil bo‘lib, differensial semalarga nisbatan hajm jihatdan keng, ya’ni biror LSGga oid so‘z ma’nolari umumiyy xos belgi-xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ammo integral sema arxisemaga nisbatan hajm jihatidan tor, chunki u faqat muayyan mikrosistemaga (semantik gruppa) oid leksema semalarining semalari bilan bog‘lanadi. Arxisema esa leksema semasining hajm jihatdan eng katta, mazmun jihatdan boy mantiqiy komponentidir.

Arxisema „holat” semali fe’llarning har bir ichki LSGsi o‘ziga xos integral semalarga ega bo‘ladi. Bu integral semalar bir-biridan tovush materiyasi va mazmun planiga ko‘ra farqli, ammo nomkash aspektidagina bir xillik kasb etadi.

*-U kishi... –Eshvoy tek qotdi. Birpas qo‘llari qovushtirilgan haykalga o‘xshab turdi-da, biqinida yana haligi sanchiq turganday qattiq qimirladi*(41).

*Yuzi yana titrab ketdi. –Nima qilay? Shunday tarbiya topgan bo‘lsam...(41).*

*Gapning qisqasi, men u yigitga yordam berishni... qizga qandaydir ta’sir etish, bu hokisor, oljanob oshiqning fazilatlari naqadar noyob ekanini ko‘rsatish, balki isbotlash, buning uchun... buning uchun yana bir nimalar qilish kerak, degan xulosaga keldim* (42).

*U boshini egib, qandaydir hazinlik, yana kinoyaga o‘xhash bir holatlar butun qiyofasida aks etgancha turdi-da , burnidan kulib:*

*-Tavba, - dedi (43).*

Har qanday harakat, holat va uning nozik etaplari, subyektning ruhiy holati, salbiy yoki ijobiy emotsiyasi, obyektga, obyektiv borliqqa, biror shaxsga bo‘lgan modal-ekspressiv munosabati va ularning nozik ma’no ottenkalari asosan fe’llar orqali talqin etiladi. Adabiyotda badiiy tasviriy vositalarni, so‘zlarning turli bo‘yoqlarini berishda, ko‘pincha, mana shu fe’llardan foydalaniladi. Bu so‘z turkumining turli problematik masalalari ustida olib borilgan har qanday ilmiy izlanishlar, lingvistik tadqiqotlar ham muhim va qimmatlidir.

### **III BOB. O'RTA MAKTABDA LEKSEMALARING USLUBIY XUSUSIYATLARINI O'RGATISH USULLARI**

#### **3.1. Leksemalarning uslubiy xususiyatlarini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

Ma'lumki, izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsul faoliyatdir. O'quvchi ona tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, faol ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning intellektual aktivligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Bizning vazifamiz ona tilimizning go'zal, jozibador jumlavari orqali ona tili ta'limining davr talabi, zamonaviy o'qitish usullari bilan birlashtirishda olib borib, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

O'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali tarbiya berishni nazarda tutadi. Badiiy asar tahlili yozuvchining o'sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo'lini qayta bosib o'tish, muallif fikrlari, hissiyoti va xulosalariga sherik bo'lish, ayni paytda uning yutuqlaridan ruhlanish, kamchiliklariga tanqidiy munosabat bildirishdir. Adabiy tahlil o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini uyushtirish, bilimlarini boyitish va ma'lum maqsadga yo'naltirishda ijodkorlik, pedagogik mahorat, fidoyilik talab etadi. U ijodiy faoliyat bo'lgani uchun sovuqqonlikni ko'tarmaydi.

"Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan maqsad,-deb yozadi A.Zunnunov,- asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O'quvchilarning

yozuvchi oldinga surgan g‘oya, muammolarni to‘la tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi”.<sup>2</sup>

Tahlil asarni nafaqat tushunish, balki o‘zlashtirish orqali ma’naviy-axloqiy barkamollikka erishishga qaratilgan faoliyatdir. Adabiy tahlilning bosh masalasi matn ustida ishslash orqali o‘tkaziladigan tahlildir. Uni ba’zi olimlar, masalan, Z.V.Rez va Zunnunovlar badiiy asarni o‘zlashtirishning asosi deb bilsalar, ayrim olimlar, masalan, M.Mirqosimova, adabiy matnning badiiy xususiyatlarini o‘rganish usuli degan fikrni ilgari suradi.

O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tag zaminidagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi.

O‘quvchi tahlil vositasida konkret asarni o‘rganibgina qolmasdan, adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, didaktika, san’at, falsafa kabi turli sohalarning badiiy ijodga bog‘liq qonuniyatlari bilan ham tanishadi. Bunga erishishda o‘qituvchining quyidagi masalalarni hal etishi nazarda tutiladi:

1. Tahlilning mazmuni va maqsadini aniqlash.
2. Ishni tashkil qilish (asar tahlilining darslar bo‘yicha taqsimoti, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish).
3. Matnning qanday metodlar asosida o‘rganilishini, o‘quvchilar egallaydigan malakalar doirasini belgilash.

Adabiy talim oldidagi yosh avlodni ma’naviy-axloqiy barkamol kishilar qilib tarbiyalashdek murakkab va mas’uliyatli vazifaning yukasak darajada hal etilishi ko‘p jihatdan o‘quvchilarda ana shunday adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishga bog‘liq. Bunda badiiy asar, adabiy-nazariy tushunchalar, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilimi, shaxsiy faoliyati, o‘qituvchi mahorati asosiy omillardir.

O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish badiiy matn ustida ishslashning turli shakl va metodlardan foydalanishni shart qilib qo‘yadi. Masalan, ilk tahliliy ko‘nikmalar boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida matn mazmuni

---

<sup>2</sup> Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi. 1992

yuzasidan savol-javob asosida, shuningdek, to‘liq, qisqartirib, ijodiy va shaxsni o‘zgartirib hikoyalash vositasida hosil qilinadi. Natijada, o‘quvchilar matn zaminidagi yetakchi ma’noni aniqlash, nafosatni his etish malakasini egallaydilar. Yuqori va o‘rta sinflarda esa matn ustida ishlashda insho, referat, bayon, taqriz, ma’ruza matnini tayyorlash kabi ish turlari keng qo‘llaniladi. Muayyan mavzu yuzasidan o‘tkaziladigan bunday mustaqil ishlar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqini boyitadi, shaxsiyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda tahlil markaziga bolalar uchun maxsus yaratilgan she’r, topishmoq, hikoya va masallar qo‘yilsa, o‘rta va yuqori sinflarda adabiy merosimiz xazinasida katta o‘rin tutadigan butun boshli doston, drama, romanlar qo‘yiladi. Bu esa adabiy tahlil malakasini bosqichma-bosqich izchil shakllantirishni taqozo etadi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish shunchaki bilim berish vositasi emas, balki adabiy ta’lim oldidagi ta’lim va tarbiya uyg‘unligiga qaratilgan eng dolzarb masaladir.

Shunga erishish kerakki, adabiy-estetik tahlil o‘quvchining bilimini boyitsin, hissiyotiga cheksiz ta’sir ko‘rsatsin, aqlini charxlab, dunyoqarashini kengaytirsin, nutqini o‘stirsin. Buning uchun o‘qituvchi adabiy-estetik tahlil bilan bog‘liq vazifa va topshiriqlarning o‘quvchilar tomonidan aniq va to‘la tushunilishiga erishishi, beriladigan bilimlar izchilligi, bilimlarning ular yoshiga mos bo‘lishini hamisha diqqat markazida tutishi lozim. Adabiy asarni o‘qish matn ustida ishslashning muhim bosqichidir. Badiiy asarlar janr xususiyatlari va dastur talablariga ko‘ra sinfda o‘qituvchi nazorati ostida, uyda mustaqil tarzda o‘qiladi. Sinfda ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay, jo‘r bo‘lib, rollarga bo‘lib, sharxli, ifodali, adabiy-badiiy o‘qish usullarida mutolaa qilanadi.

Badiiy asarni o‘qishning mazkur turlari undagi har bir so‘z, ibora va jumlanı qiroat bilan, to‘g‘ri, ravon o‘qishgina emas, balki matnning umumiyligiga kirib, tushunib o‘qishni ham anglatadi, asarning janriy xususiyatlaridan tashqari, o‘ziga

xos ichki tuzilishi va ruhiyatini hisobga olishni taqozo etadi. Bunga erishish uchun o‘quvchilarni matn ustida jiddiy ishslashga o‘rgatish zarur.<sup>1</sup>

Ma’lumki, tildagi har bir so‘z boshqa so‘zlarga nisbatan alohida, mustaqil birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Tilning lug‘at boyligini sistema sifatida o‘rganish esa so‘zni alohida birlik emas, balki butunning tarkibiy, o‘zaro bog‘liq, ajralmas birligi sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Til leksikasini bunday tadqiq etishga bunday yondoshish 1895 yili akademik M.M.Pokrovskiy tomonidan taklif etilgan edi. Olim o‘z doktorlik dissertatsiyasida “Muayyan so‘zning ma’nolari tarixi uni yondosh, ma’nodosh so‘zlar bilan o‘zaro muvofiqlikda o‘rgangandagina aniqlanadi,” – degan edi.<sup>1</sup>

Tilning lug‘aviy boyligini sistema sifatida o‘rganishda I.Trir va L.Veysbergerlar tomonidan ishlab chiqilgan “semantik, leksik maydon nazariyasi” muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Semasiologik izlanishlarda so‘zlar muayyan leksik- semantik guruhlarga ajratiladi. Bunda so‘zning ma’nosi bilan bir qatorda, ularning struktural-etimologik xususiyatlari, boshqa so‘zlar bilan birikuvchanlik imkoniyatlari ham hisobga olinadi.

Har bir leksik-semantik guruh tarkibiga kiruvchi so‘zlar bir markaziy (yadro) so‘z atrofiga birlashadi. Boshqa so‘zlarda esa ana shu markaziy (dominant) so‘z ma’nosi yanada konkretlashadi. Uning differential va integral semalariga aniqliklar kiritiladi. O‘zbek tilida so‘zlarni ana shunday komponent (uzviy) tahlil qilishga Sh. Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, R.Yunusov, I.Abdurahmonov kabi olimlar munosib hissa qo‘sghanlar. Ammo H.Ne’matov va R.Rasulovlar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, o‘zbek tili leksemalarining mazmun guruhlari sistem usulda yetarlicha o‘rganilmagan.

O‘zbek tili lug‘at boyligining katta qismini tashkil etuvchi sifat so‘z turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, turlari o‘rta ta’lim maktablarida ham, oliy ta’limda ham o‘qitiladi. Biroq o‘zbek tilshunosligida belgi tushunchasini tashuvchi

---

<sup>1</sup> Matchon Safo. Badiiy asar matni ustida ishslash. Til va adabiyot ta’limi. 2002 yil, 2-sон  
1 Pokrovskiy M.M. izbrannye raboty poazykoznaniiyu. M., 1957. s. 75

so‘zlearning mukammal tadqiq etilmaganligi bois ushbu mavzuni o‘quvchilarga tushuntirishda o‘qituvchi ba’zi qiyinchiliklarga duch keladi.

Har bir mavzu o‘rganilgandan so‘ng, o‘quvchida yangi bir hissiyot yoki fikr hosil bo‘lsa, o‘qishdan ma’naviy oziq olishga erishilsagina ta’lim samaradorligi haqida so‘z yuritish mumkin. Buning uchun o‘quv materialini atroflicha tahlil etish, ta’limiy-tarbiyaviy mohiyatini baholash, o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammolarga o‘z munosabatlarini aniq bildirish zarur. Hozirgi ta’lim tizimida fikr yuritish bosqichini kuchaytirish g‘oyasi ilgari surilmoqda. “Agar o‘quvchi har bir darsda o‘rganilgan mavzu yuzasidan ma’lum taassurotga ega bolsa, ma’naviy dunyosining boyib borishi, nutqining o‘sishi taminlanadi”<sup>5</sup>.

Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari – “Ta’lim to‘g‘risida ”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ”ning hayotga tadbiq etilishi buning dalilidir. Shaxsning rivojlanishi - jamiyat rivoji demakdir. Shunday ekan jamiyat oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sog‘lom avlodni voyaga yetkazishdir. Bu vazifani amalga oshirish birinchi navbatda o‘qituvchiga bog‘liq.

O‘qituvchi o‘qivchilarining o‘zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirishi yani interfaol tushunchasini yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o‘quvchi o‘zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so‘zga chiqadi, dalil va asoslar orqali qo‘yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o‘qivchilarining xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o‘zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi.

Ona tili darslari o‘qivchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘stirish bilan bir qatorda, ularda axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish, nafosat hissini tarbiyalash, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatish, bilim manbayi bo‘lgan kitobni sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishni nazarda tutadi.

---

<sup>5</sup> S..Matchanov, A. Sholalilov. “Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash”. Boshlang’ich ta’lim. 2004-yil. 3-son, 15-bet.

“Fonetika, grammatika to‘g‘ri yozuv va nutq o‘sirish” dasturi “Tovushlar va harflar” “So‘z”, “Gap”, “Bog‘lanishli nutq” va “Husnixat” bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Mana shu bo‘limalarni o‘tish, o‘quvchiga singdirish jarayonida o‘qituvchi o‘zining bor mahoratini ko‘rsatib, Ona tili dasturlarini noan’anaviy tarzda o‘tib, o‘quvchilarni qiziqtira olishi, shu bilan birga ularning grammatik savodini rivojlantirib borishi lozim.

Ilg‘or pedagogik texnologiyaning juda ko‘p usullari mavjud bo‘lib, ular: seminar darslar, konferensiya darslari, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishslash”, “SinKveyn”, “B.B.B. (bilar edim, bilishni hohlayman, bilib oldim)” “Debatlar”, “Taqidiy tafakkur” va boshqalardir. Bu usullardan o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyati bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin.

Ona tili o‘qitishda noan’anaviy dars usuli yuqori samara beradi. Bu usul o‘z ichiga bir qancha metodlarni oladi. Masalan: ma’ruza, suhbat, test, og‘zaki bayon, mustaqil yoki amaliy ish, lug‘at bilan ishslash, diktant, o‘yin bellashuv, musobaqa, sayohat, krossvordlarni tuzish va yechish, savol- javob va boshqalar. O‘qituvchi bir soatlik dars davomida mana shu metodlarning bir nechtasidan samarali foydalana olsa u ilg‘or pedagogik texnologiya asosida noan’anaviy dars o‘tgan bo‘ladi. Ona tili darslarining tuzulishi quyidagicha bo‘ladi:

*Mavzu, maqsad me’tod, jihoz, darsning borishi qismlaridan iborat bo‘ladi.*

O‘qituvchi dars, o‘tish jarayonida darsning mavzusi, maqsadi, metodi, jihizi qismini shundayligicha qoldiradi, ammo darsning borishi qismiga mustaqil o‘zgartirishlar kirlitsa bo‘ladi. Ya’ni uni:

- |                          |                                      |
|--------------------------|--------------------------------------|
| 1. <i>Mustaqil ish</i>   | 5. <i>Test</i>                       |
| 2. <i>Og‘zaki bayon</i>  | 6. <i>Kitob bilan ishslash</i>       |
| 3. <i>Bellashuv</i>      | 7. <i>Yangi mavzu</i>                |
| 4. <i>lug‘at diktant</i> | 8. <i>Dars yakuni va uyga vazifa</i> |

jumlalari bilan almashtirsa bo‘ladi. Bunday darslarda o‘quvchi o‘zini erkin tutadi, mustaqil fikrlaydi, og‘zaki va yozma nutqi o‘sadi, yangi mavzuni o‘zlashtirishi oson bo‘ladi. Dars qiziqarli bo‘lsa o‘tilgan mavzu o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Noan'anaviy darslarni o'tish uchun o'quvchi ham, o'qituvchi ham puxta tayyorgarlik ko'rishlari kerak. Ya'ni har bir mavzuga o'qituvchi ko'rgazmali qurol, rangli rasmlar, tarqatma materiyallar (kartochkalar), kesma harflar, testlar, boshqotirmalar olib kelishi kerak.

Kesma harflar bilan ishlash 1-sinfda kesma harflardan tovush va harf tanish, bo'g'in so'z yozishda, bo'g'in ko'chirishda foydalanadi. Lekin bu kesma harflar har bir o'quvchida bo'lishi kerak. Ular mana shu harflar bilan 2-3 daqiqa ishlash davomida 5ta, 6ta so'zni to'g'ri yozishni bilib oladilar.

Ona tilidan noan'anaviy darslarda boshqotirma, rebuslardan foydalansa ham bo'ladi. Ular o'quvchining tafakkurini charxlaydi, o'ylashga, fikr bildirishga o'rgatadi. Bular oddiydan murakkabga qarab borishi lozim. 1-sinfda so'z turkumlariga, harakatlari o'yinlarga oid boshqotirmalar berilsa, 3-4-sinflarda bunday topshiriqlar murakkablashtirib beriladi va ular o'tilgan mavzuga mos bo'lishi talab etiladi.

Fikrlash darajasini kengaytirishda testlardan foydalanish mumkin. Chunki test o'quvchini bilim saviyasini aniqlash bilan bir qatorda, uni o'ylashga, izlanishga, fikrlashga da'vat etadi. Boshlang'ich sinflardanoq testlarni tahlil qilish, javobini belgilashga odatlangan o'quvchi yuqori sinflarga o'tganda test topshiriqlarini to'g'ri bajara oladi.

Test vaqtini tejash, dars mohiyatini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun test savollarini avvalo og'zaki tarzda butun sinf o'quvchilari bilan yechish kerak bo'ladi. Og'zaki muhokama o'tilgan mavzudan o'quvchi mustaqil xulosa chiqaradi. Bunda ham ko'rsatma harflardan foydalansa bo'ladi. Test javoblari to'rtta variantda beriladi (A.B.C.D.) o'quvchi qo'lida ham shu harflar yozilgan ko'rsatma taxtachalar bo'ladi. U o'zi to'g'ri deb bilgan harfni ko'rsatadi. Noto'g'ri javob bergen o'quvchiga o'qituvchi tushintiradi va uning javobi sinfda tahlil qilinadi.

Noan'anaviy darslarda qo'llaniladigan usullardan yana biri - lug'at bilan ishlashdir. 1-sinf ikkinchi yarmida ona tili daftariga lug'at deb yozdirib, o'qish darsida o'zlashtirilgan yangi so'zlarni yozdirish, uni uyga vazifaga qo'shimcha

topshiriq qilib ko‘chirib yozishga beriladi. 2-sinfda esa o‘quvchiga alohida “lug‘at” daftari tutdirish lozim va unga har bir darsda o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni yozib boradi. Uyga vazifaga qo‘shimcha ravishda yangi o‘zlashtirgan so‘zlarni lug‘at daftariga ko‘chirib yozish va yozilishini esda saqlab qolish topshirig‘i beriladi. Bu bilan o‘quvchining yozma nutqi rivojlantiriladi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning aqliy rivojlanishlari va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirib borishga asos yaratadi. Bu davrda bolaga to‘g‘ri ta’sir ko‘sata olish, ta’limda uning rivojlanish jarayonini oqilona tashkil etish va nazorat qilish zamonaviy ta’limning bosh yondoshishlaridandir. Beriladigan bilimlar vositasida shaxsning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va ma’naviy dunyosini o‘stirib rivojlantirib borish - ta’limda bolaning rivojlanish jarayonini tashkil etishning asosiy ko‘rinishlaridan biri. Buning uchun kichik yoshdan boshlab beriladigan bilimlar vositasida bolalarni tabiat, jamiyat, insoniyat olamiga olib kirish, u bilan bog‘lash, hamnafas etish, u yoki bu hodisa, holatlarga o‘z munosabatini shakllantirib borishga yordam berish, shuningdek bolalarga burch, ma’suliyat, qadr-qimmat ruhini, o‘z-o‘zini anglash, atrofini o‘rab turuvchi tabiatni, odamlarni, boshqa millat-elatlarni, ularning madaniyati, etiqodini hurmat qilish, o‘z nuqtai-nazariga ega bo‘lish, o‘zgalar fikriga diqqat qilish va hurmat qila olish, muhokama-munozara qila olish madaniyati, umuman dunyoni teran anglash, ma’naviy-ruhiy olamini boyitib borishga va o‘z “MEN”ini namoyon qila olishga poydevor qo‘yilishi kerak.

Pedagogikada shaxsni ana shunday yo‘llar bilan quyidagi bilim va malakalarni rivojlantirib borish boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi:

- 1) o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini idrok etish, o‘z ishiga va o‘rtoqlari ishiga baho bera olish.
- 2) oila, ota-onalari do‘stlari haqida fikrlay olish, o‘z munosabatini xolisona bildira olish. Atrof-muhitga, odamlarga bo‘lgan e’tibor, mehr-oqibat.
- 3) huquqiy ong va huquqiy madaniyat. Bolalar huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro konvensiya talablari asosida bolaning o‘z huquqlari va o‘zgalar huquqlari

haqida ilk ma'lumotlar berish va amaliy foydalanishlarini rivojlantirish, o'zlarini va o'zgalar qadr-qimmatini hurmat qilish, o'z burchlarini anglab borish va "bolalarning o'zлari ishtirok etish huquqlari"ni ta'minlash (bahs, munozara, muhokama).

4) inson, tabiat, jamiyat, ekologiya, salomatlik haqidagi bilimlar rivojlantirib boriladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar o'zaro bog'liklar ilk ilmiy tasavvurlar hosil qilish, inson haqida, uning nima uchun yashayotgani haqida tushunchalarga ega bo'lishi, odamlar tabiyatini kuzatish, sabab va oqibatlarini ajrata bilish. Tarixiy ong, o'lkashunoslikka oid bilimlarga ega bo'lish.

Ushbu ta'lim mazmuni quyidagi talab me'yorlar bilan belgilanadi<sup>6</sup>:

a. O'quvchilar o'zining aqliy qobiliyatlarini amaliy faoliyatlarini, inson, tabiat, jamiyat haqidagi bilimlarni tabiatda kechadigan tabiiy jarayon va hodisalarmi tushunish bilan birga anglagan holda rivojlantirib borishlari kerak.

b. "Qanday qilib?", "Nima uchun?", "Agar mana bunday bo'lsa, bu holda nima bo'ladi?", kabi savollarni bera oladigan va tasavvurga ega bo'lishlari kerak.

v. O'simliklar va hayvonlar ham o'sish va yashash uchun ma'lum bir shart-sharoitlarga muhtoj ekanlarini bilishlari, tirik mavjudotlarning o'xshashlik va farqini ajrata bilishlari kerak.

g. Shaxsiy gigiyenaga amal qilishning ahamiyatini bilish, jismoniy mashqlarning va o'z vaqtida dam olishning foydasini tushunish, dori-darmonlardan ehtiyyot bo'lib foydalanish, o'zining kundalik ishi, kun tartibi haqida hikoya qilib bera olish.

d. O'quvchilar insoniyatning, umuman tirik mavjudotning ovqat yeishi, nafas olishi, harakat qilishi hayotiy zaruriyat ekanligini, jumladan quyidagilarni bilishlari kerak:

-tovushlar haqida, uning turli xil ohangda qo'llanilishini tushunish, tovushni qulqorqali eshitishini bilish, musiqa asboblaridagi tovushlarni ajratishi;

---

<sup>6</sup> Yu. Amirjonova "Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ta'minlash omillari" Uzluksiz ta'lim. Toshkent 2002-yil. 2-son. 32-33-bet.

-ob-havoning mavsumiy o‘zgarishlarini va mavsumga qarab tirik mavjudotlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni tushuntirib bera olishi;

-biz doimiy harakatda bo‘lib turgan katta “shar” aylanasida yashayotganimizni, bu planeta “Yer” deb atalishini, insoniyatning Yerdagi hayotga ta’sirini ilk ekologik bilimlarni egallashlari;

-har bir odamning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lishini va bu xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turishini, shu bilan birga bolalar va kattalar orasida oddiy farqni ajrata olishlari, sharhlay olishlari;

-salomatliklarini saqlovchi omillarni ma’lum bir muvozanatda ovqatlanish tartibini, muomala madaniyatini, shuningdek, sog‘liqlariga salbiy ta’sir etuvchi omillarni;

-atrof muhitni ifoslantirayotgan oddiy omil va sabablarni sharhlab bera olishlari va atrof muhitni ifloslovchi narsalarga qarshi ayrim choralarmi qo‘llay olishi;

-o‘z Vatani haqida, uning tarixi, xalqi, madaniyati haqida bilishlari, shuningdek, davlatning mustaqilligini himoya qilish uchun, rivojlantirish uchun nimalar qilish kerakligi haqida tushunchalarga ega bo‘lishlari kerak.

Ushbu ta’lim mazmuni va talab-me’yorlari boshlang‘ich ta’limning har bir bosqichida bola psixologiyasiga mos ravishda tanlab, ajratib olinadi.

Ta’lim jarayoni integrativ holda tuzilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, berilayotgan har bir ta’lim quyidagi vazifani bajarishi lozim:

- 1) Bolaning o‘z-o‘zini anglashga, o‘z kuchiga ishonishga imkon berish.
- 2) Bolaning (tabiatan) avval his qilib, keyin his-tuyg‘ular orqali idrok etishini nazarda tutgan holda ta’lim berish.

Masalan, bolalarga tayyor narsani ko‘rsatib bu narsa qanday ekanligi so‘ralmaydi yoki ta’rif berilmaydi. Balki o‘sha narsaning belgilari, xususiyatlari ta’riflanib, uni bolaning o‘zi topishiga, o‘ylashiga imkon berish.

- 3) Bolaning o‘zi, o‘z qo‘li bilan biron bir narsalarni ijod qilishi, yaratishi (rolli o‘yinlar ham mustasno emas), biron bir muammolarni o‘rtaga qo‘yib, uni hal etishda bolalarning ishtirokini ta’minlash.

4) Erkin fikrlash, muhokama, munozaralarda ishtirok etishiga zamin tayyorlash, o‘zgalarning fikriga diqqat qilish va hurmat qilishga o‘rgatish, shart-sharoit yaratish.

5) Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning “nima uchun?” “qanday qilib?” kabi savollarni qo‘ya olishlariga imkon yaratish.

Bugungi maktab o‘quvchilari kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o‘z vatani va xalqini jon-dildan sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish, har bir bolaga individual yondoshuv asosiy maqsadlardan biridir.

Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Texnologiya so‘zi yunoncha bo‘lib texne-mahorat, sanoat; logos-tushuncha, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Bu so‘z sanoatda yoki qishloq xo‘jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanadigan usul va metodlar yig‘indisini bildiradi.

Ta’lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha, o‘qish (o‘quvchi faoliyati) va o‘qitish (o‘qituvchi faoliyati)ning o‘zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish; ta’lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligini va bosqichma-bosqichligini ta’minalash, rejalarashtirilgan barcha ishlarni va amallarni birdek talab darajasida bajarishni anglatadi.

Pedagogika amaliyotida qo‘llanadigan ta’lim texnologiyasi so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, bizning amaliyotimizga yangi pedagogik texnologiya atamasi bilan kirib keldi. Pedagogik texnologiya atamasi ta’lim jarayoniga yangicha o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo‘lgan tizimli yondoshuvga asoslanadi. Bu ta’lim jarayoniga innovatsion yondoshuv demakdir.

Yangi ta’limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo‘llaniladigan ilg‘or metod va usullar, texnika vositalari, o‘qitishning shakllarini milliy tarbiyashunoslikka har bir o‘quvchi shaxsi, ruhiy o‘ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati amaliyotda, xususan, adabiy ta’limda bola shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, unga ta’lim jarayonining obekti emas, subyekti sifatida yondoshish, o‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish ustuvorligini ta’minalash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bolada bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg‘otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish, adabiy ta’lim jarayonida adiblarning asarlarida ularning shaxsi u yoki bu darajada aks etganligini anglatish, asarlardagi qahramonlarning kechinmalari va xatti-harakatlariga qarab, ularning shaxsini baholashga o‘rgatish demakdir. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning vazifalari hali mukammal darajada aniqlangan emas. Mazkur texnologiyalar sirasiga kiruvchi “interfaol metodlar”ni ham amaldagi “muammoli ta’lim” metodining bir ko‘rinishi deyish mumkin. Bu metodning asosiy xususiyati o‘quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin babs-munozara sharoitini tug‘dirishdir.

“Masalan sinfdagi o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga muayyan nom beriladi. Mavzu e’lon qilinib, vaqt belgilanadi. O‘quvchilar mavzu yuzasidan bahslashadilar. Mavzu bo‘yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o‘qituvchi guruh a’zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u mavzu yuzasidan o‘z guruhining chiqargan xulosalarini guruhning yangi a’zolariga tushuntiradi. Yangi guruh a’zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o‘rganish va unga o‘z munosabatini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig‘ida o‘quvchilar tomonidan mavzu yuzasidan fikrlar bildiriladi, xulosalar chiqariladi, hamda fikrlar ularning o‘zlari tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi ”<sup>7</sup>.

Sinfdagи o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib ishslash uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

1. Guruhrar o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladi.
2. Guruhga rahbarlik qiladigan o‘quvchi tayinlanadi.

---

<sup>7</sup> Q. Husanboeva. “Ta’limning zamonaviy texnologiyalari va mustaqil fikrlash”. Til va adabiyot ta’limi. 2003-yil. 3-sorn 7-12-betlar.

3. Har bir guruhda zehnli va qobiliyatli o‘quvchilar bo‘lishiga, bo‘shroq o‘zlashtiradigan o‘quvchilarni ham guruhlarga imkon qadar teng taqsimlashga harakat qilinadi. Guruhanlar bir-biriga munosib a’zolar bilan to‘ldiriladi va vazifalari belgilanadi.

4. Guruh rahbari va a’zolarining vazifalari tushuntiriladi.

5. Har bir guruh doira shaklida o‘tirishi, uning har bir a’zosi bir-birini ko‘rib turishi shart.

6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g‘oyalariga e’tibor berib boriladi. Yaxshi g‘oya egalari rag‘batlantiriladi.

Sinfda bunday guruhlarni tashkil etishdan maqsad dars davomida quyidagilarni ham nazarda tutadi:

-O‘quvchilarning shu ishni bajarishlari uchun bilim va malakalari yetarliligiga ishonch hosil qilish;

-Guruhlarga aniq yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish;

-Vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqt ajratish;

-O‘z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta’minalash;

-Qo‘yiladigan masala murakkab bo‘lganida guruhlarni kamaytirib, guruh a’zolari sonini ko‘paytirish;

-Baholash va mukofotlash guruh a’zolarining faolligiga ta’sir etishini ko‘zda tutish;

-Kuchli guruhlarni mukofotlash;

-Bajarilgan ish natijasini baholash va baholarni e’lon qilish;

-Jamoanining erkinligiga imkoniyat yaratish.

Ta’lim-tarbiya jarayonida “interfaol metodlar” nomi bilan kirib kelayotgan metodlardan biri bo‘lgan **aqliy hujum**ning maqsadi o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan ozod qilish, ma’lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to‘plash va masalaga ijodiy yondoshuvni ta’minalashdan iborat Amerikalik mutaxassis A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bu metodda o‘quvchilar oldiga ulardan aqliy zo‘riqishni talab qiladigan muayyan bir masala qo‘yiladi. Shu masala bo‘yicha

ishlayotgan har bir o‘quvchi tomonidan ilgari surilgan fikrni rag‘batlantirish va qayd qilib borish, ishtirokchilarning erkinligini ta’minlash, bildirilgan fikrlar asoslanishini talab qilish, bahs davomida birorta fikrni e’tiborsiz qoldirmaslik talab etiladi. O‘quvchilar tomonidan aytilgan fikrlarga e’tiborsizlik bilan qarash ularni tanqid qilish yoki fikrlaridan kulish taqiqланади.

**Aqliy hujum-** o‘quv muammolarini hal qilishda keng qo‘llaniladigan metod bo‘lib, u qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yonaltirilgan. Mazkur metod o‘quvchi oldiga qo‘yilgan har qanday muammoli masalaga ko‘p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

“Aqliy hujumdan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. O‘ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar bu jarayondagi g‘oyalar baholanadigan bo‘lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo‘liga tushadilar va o‘z fikr-g‘oyalarini himoya qilishga urg‘u beradilar. Yangi fikrlar, yangi kashfiyotlar to‘g‘risida o‘ylamay qo‘yadilar.

2. Har bir o‘quvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g‘oyalar tug‘ilmasa, qatnashchilar o‘z fikrini qayta qo‘llashga, bir-birini takrorlashga majbur bo‘ladilar.

3. Qatnashchilarning o‘z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratish kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g‘oyalar tug‘iladi.

4. Har bir o‘quvchi o‘zgalar g‘oyasiga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug‘iladi”<sup>8</sup>.

Aqliy hujumdan foydalanish shartlari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilar erkin o‘tiradigan qilib joylashtiriladi.
2. O‘quvchilarning g‘oya va fikrlarini yozish uchun varaqlar tayyorlab qo‘yiladi.
3. Hal etilishi lozim bo‘lgan muammo aniqlanadi.

---

<sup>8</sup> Q. Husanboeva. “O‘qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta’lim”. Til va adabiyot ta’limi. 2003-yil. 2-soni 17-bet.

4. Ish jarayoni belgilab olinib, o‘qituvchi “Ilg‘ab oling, g‘oyalarga asoslaning, qo‘sning, kengaytiring, o‘zgartiring” kabi luqmalar orqali bahsmunozarani boshqarib turadi.

5. Qo‘yilgan muammo yuzasidan barcha fikrlar tinglanadi va yozib boriladi.

6. O‘zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali so‘zlarga aslo yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Varaqlar g‘oya va fikrlar bilan to‘lganda ular ko‘rinarli yerga osib qo‘yiladi.

8. G‘oyalar tugamagunicha ish davom ettirilaveradi.

9. Barcha fikr va g‘oyalar tinglangach yangi, kuchli, asosli va orginal g‘oyalar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi va baholanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek ilg‘or pedagogik texnologiyalarning dars jarayonida qo‘llanilishi, avvalo o‘quvchida darsga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan, faol, bilimli shaxsni kamol toptiradi, qolaversa ta’lim mazmunini yangilaydi. Yangi zamon o‘qituvchisi o‘z mehnati jarayonida “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Davlat ta’lim standartlaridan kelib chiqib, ilg‘or usullarni o‘z darslarida qo‘llay olishi zarur.

Bugungi kunda kompyuter ta’limning barcha sohalarida tobora o‘ziga xos salmoqli o‘rin egallamoqda. U orqali, ayniqsa, darsda tabaqlashtirib ta’lim berish imkoniyati katta. Jumladan, o‘quvchilarni eng faol (eng qobiliyatli), sust (qoloq) toifalarga ajratib, har bir toifa o‘quvchilar uchun komp’yuterga alohida topshiriq kiritish mumkin. Kompyuterda o‘quvchining savol-topshiriqlarga javob berish vaqt ham ko‘rsatiladi. Vaqt savollarning og‘ir-yengiliga qarab belgilanadi. Masalan, ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma nutqini o‘sirsh, fikrni turli usullarda bayon qila olishga o‘rgatish maqsadida kompyuter orqali quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

1-topshiriq. Navro‘z so‘zi qatnashgan gaplar tuzing va ularni kompyuterga kriting.  
(Topshiriqni bajarishga 5 daqiqa beriladi.)

Eng iqtidorli o‘quvchi quyidagicha gaplar tuzishi mumkin:

Navro‘zing muborak, O‘zbekistonim! Navro‘z – baxt elchisi. Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z! (Navoiy) Ezgulik timsoli, xush kelding, Navro‘z! Navro‘z – bahor darakchisi. Navro‘z yangi kun, yangi iqbol! va hokazo.

2-topshiriq. «Suv» mavzusiga oid so‘z birikmalari yozing. Chunonchi, 1-kompyuterdagи o‘quvchiga suvning turlari (qor suvi, zilol suv, ma’danli suv kabi), 2-kompyuterdagи o‘quvchiga suvning xususiyatlari (obi hayot, arning joni, ekinning qoni, elektr manbai kabi), 3-kompyuterdagи o‘quvchiga meva suvi nomlari (anor suvi, uzum suvi, tarvuz suvi, behi suvi kabi), 4-kompyuterdagи o‘quvchiga esa suv so‘zi qatnashgan iboralar topish (og‘zining suvi qochdi, sirkasi suv ko‘tarmaydi, suvga tushsa quruq chiqadi) kabi topshiriqlar beriladi.

3-topshiriq. Berilgan matndagi fikr va g‘oyalarni saqlagan holda boshqa so‘z-iboralar yordamida qayta hikoya qiling.

O‘quvchilar mazkur muammoli topshiriqlarni bajarishda o‘zlaricha fikr yuritadilar, munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o‘quvchining ish quroli olgan bilimlari, darslik hamda turli lug‘atlardir.

Inson umrining har lahzasida uchraydigan rang uning ma’naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kusb etadi. Chunki rang har daqiqa ijobiy va salbiy ta’sirlantiradi. Shuni e’tiborga olib, kompyuterga ranglarning turini ajratish, ular nomini bilishga oid savollar ham kiritish mumkin. Bunda komp’yuter xotirasidagi 50 ga yaqin rang nomlaridan foydaliniladi: alvon, bargi karam, binafsha, bug‘doy rang, ko‘k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, oq, pista mag‘iz, pista tagi, pushti, sariq safsar, samo rang, sur, feruza, o‘choq kesak, qizil, qirmizi, qora, qora qizil, qoramag‘iz, qoracha, qo‘ng‘ir, havo rang, anor dona, aqiq, bayzogul, barg rang, baqa to‘ni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jiyron, jigarrang, ziynovi, zar, zarchava, zarg‘aldoq, kaptarbo‘yin...

Har bir o‘quvchi belgilangan vaqt ichida yuqoridagi kabi rang nomlaridan bilganlarini kompyuterga kiritadi. Eng ko‘p rang nomini yoza olgan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

O'quvchi ko'rsatilgan neologizmlarni dastlab o'zi sharhlashga urinadi. So'ngra kompyuterga kiritilgan sharh bilan o'zinikini taqqoslaydi. O'qituvchi tomonidan zarur deb qayd qilingan o'rirlarni amaliy mashq daftariga yozib oladi.

Kompyuterda muammoli vaziyat yaratish imkoniyatlari ham kattadir. Bunday usullar xilma-xil bo'lib, ulardan yangi mavzuni tushuntirishda, mavzuni mustahkamlash va yakunlashda ham foydalanish mumkin.

Shuningdek, nutqqa oid misollar tahlil qilish, tilning turli jihatlari bo'yicha tushuncha hosil qilish, mavzularni bir-biriga taqqoslash, til sohalari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar kiritish va olishda ham kompyuter o'quvchiga samarali yordam beradi.

Kompyuterda o'quvchilarni qiziqtiradigan rebus, krossvord tarzidagi o'yinlar tashkil etish, berilgan so'zlardagi harflar o'rnini almashtirish yo'li bilan boshqa so'zlar hosil qilish mumkin. Bunda barcha topshiriqlar o'quvchini so'z izlash va topgan so'zlarining eng maqbulini tanlab uni nutqda qo'llashga o'rgatish lozim.

Demak, kompyuterda yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajarish o'quvchining so'z boyligini oshirish, mustaqil mushohada yuritish, so'z va uning ma'nolari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan xatolarini aniqlashga, dars davomida o'z-o'zini boshqaruviga imkoniyat yaratadi, bajargan topshirig'inining natijasi bilan shu onda tanishtirib boradi va sinfdoshlarining ishi samarasidan ham voqif etadi.

Ma'lumki, ta'limni kompyuterlashtirish o'quv-tarbiya jarayonini faollashtiradi, mavzuning o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish uchun zamin yaratadi. Bunda mustaqil ta'lim madaniyati rivojlanadi, o'qituvchining ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun sarflanadigan vaqt va mablag'i sezilarli darajada tejaladi, o'quvchilarning kompyuter savodxonligi ortadi va hokazo. Ayniqsa, kompyuterning MS Power Point dasturiga asoslangan taqdimot texnologiyasidan foydalanish eng qulay, samarali va keng tarqalgan usullardandir. Mazkur dastur universal, imkoniyatlari

katta bo‘lgan ko‘rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafikalar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik kabilar tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Ona tili darslarida ham, boshqa fanlarda bo‘lganidek, o‘qitishning individualligini ta’minlash, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ularga estetik tarbiya berish talab etiladi. Bunda an’anaviy metodlar bilan bir qatorda axborot texnologiyalaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, kompyuterdan foydalanish orqali so‘z boyligini oshirish va boyitish, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, mustaqil matn yaratish malakasini oshirishga imkoniyat yaratiladi.

Darsda o‘qituvchi kompyuterni ishga tushiradi va MS Power Point dasturi yordamida yaratilgan «Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari» slaydlarini namoyish etadi. 12 ta darsda qo‘llanilgan slayd tayyorlashda tashkil etuvchining rangini, bezagini tanlashga o‘ta ehtiyyotkorlik bilan yondoshiladi, musiqa kabilar o‘quvchini asosiy maqsaddan, ya’ni bilim olishdan, mustaqil fikrlash va fikr bildirishdan chalg‘itishi mumkin. Aks holda mashg‘ulotdan maqsadga erishish qiyin bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz o‘z slaydlarimizni bezatishda eng sodda dizayn turini tanladik. 1-slaydda mavzu nomini slaydlar tayyorlashda so‘zlar «betartib ravishda uchib kelish» effekti va mayin, juda past ovozdan musiqa bilan ekranda paydo bo‘ladi.

Keyingi slaydda («O‘zbek tilining imlo qoidalari») da berilgan ma’lumot – bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi ko‘chirilmaydi. Noto‘g‘ri misollar diqqatni tortuvchi va ogohlilikka chorlovchi qizil rangda, to‘g‘rilari esa yashil rangda animatsion harakatlar bilan paydo bo‘ladi.

3-slaydda bo‘g‘inlar chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undoshchlarni ajratish to‘g‘risida, 4-slaydda bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko‘chirilishi, keyingi slaydlarda qisqartmalar va ko‘p xonali raqamlar satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmasligi va shu kabi bo‘g‘in ko‘chirish qoydalari birma-bir ovoz, animatsiya, matn, rang-tasvir singari multimedia vositalari yordamida yoritiladi. Bunda o‘qituvchi faqatgina slaydlarni namoyish

etib qolmay, balki so‘zlarni, qoydalarni biroz vaqt «yashirib turib» o‘quvchilarga ularni izlashni, o‘z misollarini keltirishni, slaydda xatolar mavjud bo‘lsa, topishni taklif etadi, ya’ni ularni yangi mavzuni o‘zlashtirishda mustaqil fikrlashga, faollik undaydi.

So‘nggi uch slaydda avval mavzuni mustahkamlash uchun material berilgan. 9-slaydda avval diagramma «aylanma harakat» bilan paydo bo‘ladi, keyin kompyuter, fotoapparat, konvertlarning rasmi chiqadi. O‘quvchilar tezlik bilan rasmdagi predmet nomlarini bo‘g‘in ko‘chirish qoydalariga muvofiq holda daftariga yozishlari kerak. Klaviaturaning tugmachasi bosilgach, tekshirish uchun ekranda tegishli so‘zlar paydo bo‘ladi. Bir o‘quvchi bu so‘zlar o‘zlashma so‘z ekani, ularda bo‘g‘inlar chegarasida ikki va undan ortiq undosh mavjudligi hamda bu holda bo‘g‘in qanday ko‘chirilishi lozimligini aytadi.

9-, 10-, 11-slaydlardagi amaliy ishni sinf o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lib, musobaqa tarzida ham o‘tkazish mumkin. Bunda tezkorlik, topqirlik alohida baholanadi, rag‘batlantiriladi.

Shu yo‘sinda tashkil etilgan dars o‘quvchilarga psixologik nuqtayi nazardan ham ijobiy ta’sir qiladi. Natijada o‘quvchilar biroz jonlanadilar, mavzu tezroq mustahkamlanadi, u o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, qoidalarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi va umuman, mashg‘ulot qiziqarli o‘tadi, uning samarasi ortadi.

Ta’kidlash joizki, til darslarini tashkil etishda o‘qituvchi kompyuter imkoniyatlaridan oqilona foydalanishi kerak.

Yuqoridagi shakllarda dars o‘tilganda o‘quvchilarni faol, mustaqil fikrli, dars jarayonida o‘z fikrini himoya qila oladigan shaxslar qilib tarbiyalovchi, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etib borishimiz kerak.

Ozod va obod Vatanimizning ulkan umidi bo‘lmish o‘quvchilarning kelajakda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, o‘z vatani va xalqini jonidan sevuvchi insonlar qilib tarbiyalash, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda ota-onalarni faol jalb etish, har bir bolaga dars berishda individual yondoshuv-bularning bari

“PEAKS” loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan “Qadamba-qadam” dasturining talab va dasturlaridandir. Xalq ta’limi vazirligi Oliy ta’lim vazirligi hamkorligidagi ushbu dasturning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, u Respublika Davlat Ta’lim Standartlaridan kelib chiqib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish maqsadida turli interfaol usullarni qo’llagan holda olib borishni taqozo etadi.

### **3.2. Mavzuga doir dars ishlanma**

6-sinf Ona tili darsi

Mavzu: Harakat va holat fe’llari

**Darsning maqsadi:**

- a) **ta’limiy:** Ona tili fanining nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda estetik did, estetik ong, ona tilimizga muhabbat, badiiy tafakkur va tasavvurini kamolga yetkazish va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.
- b) **tarbiyaviy:** Ona tili fani orqali o‘quvchilarga DTS asosida dars berish. Shu bilan bir qatorda milliy iftihor, qadriyat sifatida e’tirof etish va uni hurmat qilishga o‘rgatish.
- c) **rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

### **O‘QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI**

<b>Dars turi:</b>	<i>aralash yoki kombinatsiyalashgan: shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi</i>
<b>Dars metodi:</b>	<i>“Aralash”, “Interfaol metodlar”, “Guruhlarda ishlash”, “raqamlar charxpalagi”, “Aqliy hujum”</i>
<b>Dars jahozi:</b>	<i>darslik, ko‘rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT</i>

## DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	<b>Tashkiliy qism</b>	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	<b>O‘tilgan mavzuni takrorlash</b>	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog‘lash	8 daqiqa
3	<b>Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish</b>	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	<b>Yangi mavzuni mustahkamlash</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	<b>Dars yakuni va baholash</b>	G‘olib guruhni aniqlash, rag‘batlantirish. Darsning so‘ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	<b>Uyga vazifa</b>	O‘qituvchi tomonidan uygava vazifa e’lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo‘nalishini aytib o‘tadi	2 daqiqa

## DARSNING BOBISHI

### I. Tashkiliy qism.

O‘quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e’lon qilish.

So‘ng sinf o‘quvchilari “**Donolar**” va “**Zukkolar**” guruhiba ajratiladi. Uyga vazifa har bir guruhning ikki nafar o‘quvchisidan so‘ralib, javoblar

“Rahmat”(3ball), “Barakalla”(4ball), “Ofarin “(5ball)rag‘bat kartochkalari bilan taqdirlanadi.

**1.1. O‘qituvchi o‘quvchilarga darsning oltin qoidasini aytib o‘tadi hamda o‘quvchilar ushbu darsning oltin qoidalariga amal qilish kerakligi ta’kidlanadi.**

- "Ong qo'l qoidasi" ga rioya qilish;
- O'zaro hurmat, o'zgalar fikrini tinglay olish;

Darsning oltin qoidasi



- Diqqat - e'tiborlilik, tezkorlik va topqirlik
- Vaqtga rioya qilish.

Darsning oltin qoidasi



- Qoidani unutma, Ma'nodan uzoq ketma. Gapni cho'zma oz gapir, Keng ma'noli soz gapir.

Darsning oltin qoidasi



**1.2. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish:**

**1.3. Kunning muhim voqealari aytib o‘tiladi:**

O‘qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo‘lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o‘tiladi.

**II. O‘tilgan mavzuni takrorlash:**



O‘tilgan mavzuni o‘quvchilar “Raqamlar charxpalagi” o‘yini orqali mustahkamlashadi. Bunda bir tomoniga qizil,bir tomoniga ko‘k rangda 1dan 10 gacha bo‘lgan raqamlar yozilgan.10 ta kartochkaning 5tasi bir guruhning, qolgan 5tasi ikkinchi guruhning 5 tadan o‘quvchisiga beriladi. Masalan,1-raqamli o‘quvchining kartochkasiga 4 raqami yozilgan bo‘lishi mumkin,1-raqamli o‘quvchi 4 raqamli o‘quvchiga o‘tilgan mavzu yuzasidan savollar beradi. Javoblar rag‘bat kartochkalari bilan taqdirlanadi.

**III. Yangi dars mavzusini mazmunini tushuntirish:**

**1-topshiriq.** Daraxtlarning yaproqlari oltinday sarg‘aydi gapidagi fe'lning harakat yoki holatga oid ekanligini aniqlang. Uni bo‘yamoq fe'liga solishtiring.

**2-topshiriq.** *Silkinmoq, qimirlamoq, to'planmoq* fe'llarining harakat yoki holatni ifodalashini aytin.

**BILIB OLING.** Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi.

Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar *harakat fe'llari* hisoblanadi. Shaxslaring ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar esa *holat fe'llari* sanaladi.



**86-mashq.** Matnni o'qing, fe'llarni harakat va holat fe'llariga ajratib ko'chiring.

U choyxona yonidan o'tib borarkan, ichkaridan taralayotgan kuy tovushlarini eshitib, to'xtab qoldi.

Bolaning yuragi hapriqib ketdi. Uyi tarafga yugurdi. Bir bo'lak yog'och parchasini topib, uni pichoq bilan yo'ndi, tekisladi... Nihoyat, shakli dutorga o'xshagan bir nima yasadi. Keyin unga ot qilidan tor tortdi va tirnoq barmoqlari bilan asta chertib ko'rdi. Ojizgina vizillagan tovush eshitildi. Yana chertdi... Yana... Shu kuni ohang tug'ildi. Bola uchun yangi, ohangli bir olam paydo bo'ldi.  
(E. Usmonov)

**87-mashq.** Ikki guruhga bo'lining. Birinchi guruhdagilar harakat, ikkinchi guruhdagilar holat fe'llarini yozsin.

Tasvirlamoq, kuylamoq, taralmoq, qotmoq, o'ylamoq, eshitilmoq, porlamoq, yiqilmoq, jimirlamoq, unmoq, o'smoq, fikrlamoq, ikkilanmoq, qaytarmoq.

**88-mashq.** Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan fe'llarning ma'nosiga diqqat qiling, ularning ma'nodoshlarini topib, gaplar tuzing.

Hosildan **bo'shab**, ko'kragiga shamol **tekkan** kuzgi dalalarda ajoyib fayz bor. Dov-daraxt, o't-o'lan xuddi yer kabi **oltin tus oladi**. Kanallar, ariqlarda hayqirib

oqayotgan suvlar kumushdek toza, tiniq. Yoz **kirguncha** endi ularga hech kim tegmaydi, yo‘lini **to‘smaydi.** (*O’. Hoshimov*)

**89-mashq.** Yusuf Xos Hojibning quyidagi baytiga diqqat qiling. Unda ilgari surilgan g‘oya bo‘yicha bahs uyushtiring. Bahs davomida ishlatilgan fe'llarning ma’nosiga diqqat qiling.

Omonlik tilasang, agar sen o‘zing, Tilingdan chiqarma yaroqsiz so‘zing.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

Og‘zaki savol-javob.



**Harakat fe'llari deb qanday fe'llarga aytildi?**



**Holat fe'llariga misollar keltiring.**

Darsning bu bosqichida “**Ortiqchasini top**” o‘yinidan foydalanish mumkin. Bunda guruham o‘quvchilariga harakat va holat fe'llari yozilgan jadvallar ko‘rsatiladi. Ular harakat va holat fe'llari berilmagan so‘zlarni topishlari kerak. Javoblar rag‘bat kartochkalari bilan taqdirlanadi.




## VI. Uyga vazifa



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

## XULOSA

Hozirgi kunda maktablarda ta’lim mazmuni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida amalga oshirilmoqda. O‘quvchilar savodxonligini oshirish, nutqini o‘sirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrini takomillashtirish hamda ta’lim tizimlari orasidagi uzviylikni ta’minlashga qaratilmoqda.

Ona tili fanini o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilishdir. O‘quv-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or zamonaviy usullarini, ya’ni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish vazifasi qo‘yilgan.

Pedagogik texnologiya vositasida ta’lim samaradorligini oshirish uchun o‘quv materiallari imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish va har bir darsda muayyan maqsad asosida, ularning aqliy rivojlanishiga, dunyoqarashini kengaytirishga imkon yaratish talab etiladi.

Dars jarayonida sinfdagi har bir o‘quvchini e’tibordan chetda qoldirmay, bilim olishda faollashtirish muhim ahamiyatga ega.

Maktabda so‘z turkumlari yuzasidan ilk bilimlar II-IV sinflarda beriladi. Ot, sifat, son, olmosh, fe’l; yordamchi so‘z turkumlaridan “Bog‘lovchi” haqida nazariy ma’lumotlar beriladi.

VI sinf Ona tili (Ne’matov H., G‘ulomov A. va boshqalar. T.: “O‘qituvchi”, 2004) darsligida sifat so‘z turkumini o‘rganish uchun o‘nta mavzu ajratilgan. Sifatlarning lug‘aviy shakllari, yasalishi, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning ma’noviy guruhlari kabi mavzular shular jumlasidandir.

Biz bu malakaviy ishimizni yozish jarayonida o‘zbek tilida mavjud sifat so‘z turkumini o‘rganishga harakat qildik. I bobda sifatning ma’noviy guruhlari, yasalishi, darajalanishi haqida batafsil to‘xtalishga uringan bo‘lsak, II bobda ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar to‘g‘risida fikr yuritdik.

Insonlarning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg‘ularini aks ettirish uchun nutqimizda sifat turkumiga oid bir qancha leksemalar qo‘llanadi. Bu leksemalar ifodalagan ma’nolar orqali kishilarning ruhiy kechinmalari va ular bilan bog‘liq ruhiy holat ifodalanadi. Bunday so‘zlar orqali turmushda yuz bergen, yangi paydo

bo‘lgan turli xil vaziyat va sharoitlar natijasida kishining jismoniy va ruhiy jihatdan o‘zini sezishi, holati, kayfiyati kabi ko‘rinishlar tasvirlanadi.

Malakaviy ishimizni yozish jarayonida ilmiy adabiyotlardan shu mavzuga oid manbalarni o‘rganib chiqdik. Ilmiy maqolalar va mакtab darsliklarida berilgan fikrlarni bir-biriga qiyosladik, mavzuga oid misollarni badiiy adabiyotlardan tanlab oldik. Natijada o‘zbek tilida ruhiy holatni ifodalovchi leksemalarni 4 ta guruhga ajratib tahlil qildik.

Maktabda fe’l so‘z turkumini o‘rganish, fe’llar uslubiyati kabi mavzularni o‘quvchilarga o‘rgatishga doir bir qancha misollar to‘pladik. Ishni yozishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga o‘zbek tilidagi fe’l turkumiga oid leksemalarning ma’noviy guruhlari haqida ma’lumot berish bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida fe’l so‘z turkumi kattagina lug‘at qatlagini tashkil etadi. Har qanday holat, uning nozk qirralari, subyektning ruhiy holati, salbiy yoki ijobjiy emotsiyasi, hayotga yoki biror shaxsga bo‘lgan modal-ekspressiv munosabati asosan fe’llar orqali talqin qilinadi. Har qanday so‘zning lug‘aviy ma’nosi nutqiy sharoitda oydinlashadi.

Bizning vazifamiz ona tilining go‘zal, jozibador jumlalari orqali ona tili ta’limini davr talabi va zamonaviy o‘quv qurollari bilan birgalikda olib borib, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash hamda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchilarning nutq zahirasini shakllantira borish hamda boyitish til ta’limida eng muhim masala hisoblanadi. Bunday maqsadga erishish yo‘llaridan biri – fe’lning grammatik ma’nolarini o‘rganish bilan bir qatorda, ularni ma’noviy guruhlarga ajratish, o‘zaro qiyoslash, ma’no nozikliklarini farqlash, ular ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuzish, mustaqil va ijodiy matn yaratish yo‘llarini o‘rganishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Malakaviy ish materiallaridan o‘rta maktab o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilari foydalansa bo‘ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T. Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliv saodatdir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2015. 282 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelejagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.486 b.
5. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bocqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.486 b.
6. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro: Buxoro universiteti, 1999.
7. Jamolxonov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo’llanmasi. – T.: “Talqin” 2005 yil
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
9. Sayfullayeva R. Va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
10. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1978.
11. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.
12. Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. – T.: Fan, 1974.
13. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘zbekiston, 1992.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006-2008.
15. Bo‘ronova B. Shukur Xolmirzaev hikoyalari peyzaj./ O‘zbek tili va adabiyoti. 2013. №2. –B.63-65.
16. Mamarajabova Z. Sifatning konnotativ ma’no xususiyatlari. Til va adabiyot ta’limi, 2004. 3-sont

17. Mamarajabova Z. Vazn bildiruvchi sifatlarning konnotativ ma'nolari. Til va adabiyot ta'limi, 2006 yil, 3-son
18. Mamarajabova Z. Ko'rinish sifatlarining grammatik xususiyatlari. Til va adabiyot ta'limi, 2002. 2-son.
19. Normurodov R. Sh.Xolmirzaevning metaforadan foydalanish mahorati. O'zbek tili va adabiyoti. 2002. №2. –B. 68-69.
20. Hasanov A. Sh. Xolmirzayevning sifat metaforalardan foydalanishi. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – T.: 2008.
21. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 462 b.
22. To'xliyev B., Shamsiyeva B., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006 y.
23. Jalolova L. Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – T.: 2008.
24. Pardayev Z. Ruhiy holat ifodalovchi sifatlar semantikasiga doir. O'zbek tili va adabiyoti, 2002 yil, 3-son.
25. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llarining obligator valentliklari. – T.: Fan, 1989.
26. Safo Matchon. Badiiy matn ustida ishlash. Til va adabiyot ta'limi, 2002 yil, 2-son
27. Ziyadova U. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish omillari. "O'zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlar", – Toshkent, 1994, 6-son, 3-b.
28. Ziyodova T., Xolmatova U. Matn yaratish jarayonida o'xshatmalar ustida ishlash. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002 yil, 3-son.
29. Maxmutov M.I. Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish. – Toshkent. 1981, 15-bet.
30. Rajapova K. Ona tili darslarida nutq o'stirish usuli va vositalari. "Filologik tadqiqotlar", Fan, 2006.

## **INTERNET MATERIALLARI:**

1. www. tashit. uz.
2. www. press\_ servise. uz.
3. www. gov. uz.
4. www. ziyonet. uz.